



## XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

PISA

 OECD

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI  
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

## XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

*(Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va  
soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma)*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2019

X - 22 **Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash** (*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma*). Ta'lif inspeksiyasi huzuridagi Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

**Fizika-matematiqa fanlari doktori, professor  
U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida**

**Tuzuvchilar:**

- A. Ismailov** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA tadqiqoti milliy loyiha menejeri;
- D. Norboyeva** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o'rinnbosari;
- H. Ahmedov** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bo'lim boshlig'i;
- D. Manapova** – Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 286-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi;
- M. Uralova** – Toshkent shahar Mirobod tumani 218-maktab rus tili fani o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

- M. Baybayeva** – A.Avloniy nomidagi Xalq ta'lifi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi;
- N. Erkinova** – Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 27-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**Ilmiy-metodik maslahatchilar:**

- G. Kovalyova** – Rossiya ta'lif akademiyasi Ta'lifni rivojlantirish strategiyasi instituti Ta'lif sifatini baholash markazi rahbari;
- G. Sidorova** – Rossiya ta'lif akademiyasi Ta'lifni rivojlantirish strategiyasi instituti ilmiy xodimi.

Mazkur metodik qo'llanma Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for economic co-operation and development – OECD) tomonidan o'tkaziladigan PISA (Program for international student assessment) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzib chiqilgan.

Unda PISA xalqaro tadqiqotining mazmun-mohiyati, uning o'qish savodxonligini baholash yo'nalishiga oid asosiy tushunchalarning ta'rifi, topshiriqlar, ularning tavsifi va yechish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma umumiy o'rta ta'lif muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarining tinglovchilari, fan metodistlari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljalangan.

*Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ilmiy kengashining 2019-yil 15-oktabrdagi yig'ilishining (2-sod bayonnomasi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

*Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi bilan Jahon banki hamkorligidagi GPE TF018066 «Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lifni takomillashtirish» loyihasi mablag'lari hisobidan chop etildi.*

# MUNDARIJA

KIRISH	4
1. PISA tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumotlar	8
1.1. O'qish savodxonligining ta'rifi	12
1.2. Domenning tuzilishi	16
1.3. Matnga kirish va ma'lumotlarni olish	17
1.4. Baholash va mulohaza yuritish	19
1.5. Topshiriqni bajarish jarayoni	20
1.6. Matnlar	21
1.7. O'qish savodxonligini baholash	23
2. Topshiriq namunalari	
2.1. Chad ko'li	25
2.2. Gripp	29
2.3. Ishchi kuchi	36
2.4. Graffiti	42
2.5. Politsianing ilmiy quroli	48
2.6. Yuguruvchilar	52
2.7. Sovg'a	57
2.8. Amanda va Gersoginiya	68
2.9. Kadrlar	76
2.10. Yangi me'yorlar	79
2.11. Siz tishingizni qanday tozalaysiz?	83
2.12. Qon topshirish	87
<i>Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar             hamda elektron resurslar</i>	91

## KIRISH

**«Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...»**

**Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbliyi va qamrovi kun sayin ortib bora-yotgan zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabit etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o‘rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug‘vor vazifalar turadi.

1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o‘tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asrostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta’limining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiyl o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta’lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg‘ayishidir. Shu ma’noda OECDdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani va ular nechog‘li

samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo‘ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga<sup>1</sup> muvofiq umumiylar o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq<sup>2</sup>:

O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment – PISA);

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni;

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

O‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘z-lashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS);

Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kirishildi.

Ushbu maqsad yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Shu bilan birga, Milliy markazga hukumat qarori asosida, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini shakllantirish, xalqaro tadqiqotlar haqida qo‘srimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratish, iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish vazifalari yuklatildi.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan PISA kabi baholash dasturlari O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ilk marta o‘tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o‘tkazish soha xodimlari zimmasiga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Bu borada pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘sish maqsadida metodik qo‘llanmalar tayyorlandi.

Mazkur qo‘llanma PISA dasturining o‘qish savodxonligi yo‘nalishiga oid ma’lumotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, unda o‘tgan yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda foydalanilgan topshiriq namunalari hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Ushbu qo‘llanmadan umumta’lim muassasalarida sinfdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, berilgan topshiriqlarni bajarish orqali ularning ijodi, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, bu borada o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, shuningdek, ularni 2021-yilda o‘tkaziladigan PISA tadqiqotlariga tayyorlashda foydalanish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, mazkur qo‘llanmadan o‘quvchilarning o‘qish

savodxonligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, qo'shimcha o'quv-uslubiy qo'llanma va adabiyotlar yaratishda foydalish mumkin.

Qo'llanmada berilgan topshiriqlar o'qituvchi va soha xodimlariga bu topshiriqlarning turlari, ularning berilish va bayon qilish usullari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Har bir topshiriq bir necha savolni o'z ichiga olgan bo'lib, savollar oddiy bitta yoki bir nechta to'g'ri javobli test, qisqa yoki mufassal javobli yopiq savol, shuningdek, mufassal javob berish lozim bo'lgan ochiq savol ko'rinishda berilgan.

Har bir savolning javobi yoki topshiriqning yechimi, savollarning javobi bo'yicha alohida izohlar hamda tavsiyalar berilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir PISA topshirig'ini o'rganayotgan vaqtida oldin unga oid tayanch bilimlarni faollashtirish, o'quvchilarni bu topshiriqni yechishga tayyorlash lozim bo'ladi.

PISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroflicha o'rganish, shu topshiriqlarga o'xhash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqishga qiziqqan mutaxassislar uchun mazkur qo'llanma munosib manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xhash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlarga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniغا, ularni chalg'itib qo'yishi ham mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiylaytirishdarajasi oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Qo'llanmani takomillashtirish  
bo'yicha fikr-mulohazalar va  
takliflar quyidagi manzilga  
yuborilishi mumkin:**  
*Toshkent shahri, Chilonzor  
tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy.  
E-mail: markaz@tdi.uz*

PISA tadqiqoti haqidagi mazkur qo'llanma ilk bor yaratilayotganligi, undagi materiallar xalqaro tadqiqot dasturi manbalaridan olin-ganligi sababli ayrim juz'iy kamchiliklardan xoli bo'lmashigi mumkin.

# 1. PISA TADQIQOTI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

PISA – o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishlarini aniqlashga mo'ljallangandir. Shuningdek, PISA dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni toplash bilan birga, ularda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari va ular bergen taklif va yechimlarni baholaydi.

Dunyo mamlakatlarida PISA dasturining natijalari asosida o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISAning asosiy vazifasi – mamlakatlarni ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Xalqaro ekspertlar va iqtisodchilar o'quvchilarda o'qish, matematika, tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi va mustahkamlanishi davlatning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadam deb hisoblanishini e'tirof etadilar.



PISA Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

PISA 2000-yildan buyon har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ham qatnashishi ko'zda tutilgan. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mam-

lakatlarga siyosiy qarorlarni va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni o'z ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratib beradi. Tadqiqotni aynan har uch yilda o'tkazilishining o'ziga xosligi shundaki, ta'lim sohasidagi islohotlar, o'zgarishlar va yangilanishlarni kuzatish yo'lida zaruriy ma'lumotlar to'plash uchun qulay davriylik hisoblanadi. Shuningdek, bu davriylik davlatlarga o'z ta'lim tizimida kelajakda erishishi ko'zda tutilgan asosiy maqsadlarini aniqlab olish imkoniyatini yaratib beradi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;
- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;
- tadqiqotda umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadi;
- o'quvchilarning «mustaqil hayotga tayyorlik» darajasi, ya'ni ularning mактабда egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- o'quvchilarning funksional\* savodxonligi, jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek ushbu yo'naliшlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Bundan tashqari, PISA – 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchi-yoshlar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECDga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

Shu o'rinda, «O'zbekistonning ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishi nima

\* *Funksional savodxonlik* – insonlarning tashqi muhit va jamiyat bilan munosabatga kirishishi va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatidir.



beradi?» degan savol tug‘ilishi tabiiy. PISA tadqiqotida ishtirok etish quyidagilarga imkon yaratib beradi:

umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ta’limning keyingi bosqichini davom ettirishga, shuningdek mustaqil hayotga qay darajada tayyor ekanligini aniqlash;

umumiyo‘rta ta’limni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma’lumotlarni olish.

Uchta yo‘nalish bo‘yicha tuzilgan maxsus PISA topshiriqlari asosida o‘quvchilarning savodxonligi tekshirilibgina qolmasdan, yana qo‘srimcha ravishda turli ijtimoiy so‘rovnomalar orqali ularning o‘qish shart-sharoitlari, muammo va yutuqlari ham o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur dasturda, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, uchta yo‘nalish bilan cheklanib qolmasdan, qo‘srimcha yo‘nalishlar, ya’ni «Global kompetentlik», «Moliyaviy savodxonlik», «Muammoni hamkorlikda yechish» kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ham tadqiqotlar o‘tkazib kelinmoqda. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar davlatlarning tanlovi asosida amalga oshiriladi.

Shunday bo‘lsa-da, dasturning har davrdagi tadqiqotlarida bitta asosiy yo‘nalishga alohida urg‘u, ustuvorlik beriladi. Ya’ni, ustuvor yo‘nalish bo‘yicha sinov topshiriqlari soni taklif etilgan barcha topshiriqlarga nisbatan ko‘proqni tashkil qiladi. 2021-yilgi PISA tadqiqotlarida «Matematik savodxonlik» yo‘nalishi ustuvor etib belgilangan.

PISA tadqiqotlarining nufuzi va unda qatnashuvchi davlatlar soni borgan sari oshib bormoqda. 2018-yildagi tadqiqotlarda 78 ta davlatlar qatnashgan bo‘lsa, 2021-yildagi tadqiqotlarda ishtirokchi davlatlar soni 85 taga yetishi kutilmoqda. Ular qatorida, O‘zbekiston Respublikasi ham ilk marotaba ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Xalqaro baholash dasturi doirasida asosan quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

yoshlar kelajak hayotlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishga qay darajada tayyor?

o‘quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etishga qodirmi?

o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlariga ega?

Ushbu tadqiqotda «Maktablar o‘quvchi yoshlarni katta hayotga

o‘tishiga munosib ravishda tayyorlay olyaptimi?», «Ayrim turdagи o‘quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi?» kabi savollar o‘rin oladi.

PISA muayyan mакtab o‘quv dasturlarining ustunligini emas, balki o‘quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini o‘rganadi.

O‘quvchilar maktabda o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsani to‘liq o‘zlashtira olmaydilar. Samarali o‘rganuvchi bo‘lish uchun nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ular qanday va nima uchun o‘rganilishi haqida xabardor bo‘lishi lozim.

PISA tadqiqotida topshiriqlar savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarning to‘liqligiga qarab, «javob to‘liq qabul qilinadi», «javob qisman qabul qilinadi», «javob qabul qilinmaydi» mezonlari bo‘yicha baholanadi.

## 1.1. O'QISH SAVODXONLIGINING TA'RIFI



O'qish va o'qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topdi. O'qish faqatgina ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolarlikda o'zlashtiriladigan qobiliyat, deb hisoblanmay qo'ydi.

Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko'nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. Jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish maqsadida inson uchun bilim olish, barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish va aks ettirish qobiliyati juda muhimdir.

O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi. O'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, uning ma'lumotni tanlash, tushunish, talqin qilish va baholash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

O'qish savodxonligining quyidagi ta'rifida uning har bir qismiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, PISAdagi dalillar va boshqa amaliy tadqiqotlardan foydalangan holda, ushbu soha (domen) ta'rifiga ba'zi muhim o'zgartirishlar kiritildi va puxta ishlab chiqildi. Bu nazariyadagi o'zgarishlar va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarni inobatga olib amalga oshirildi.

### O'qish savodxonligi...

Oldingi ta'riflarga qaraganda, farqini solishtirar ekanmiz, «O'qish» atamasi o'rnida «O'qish savodxonligi» atamasi foydalanilganligini ko'rish mumkin, chunki ushbu jumla mazkur dasturning tadqiqot doirasi, o'rganish obyektlari haqida, hattoki ayni fan mutaxassisini bo'limganlarga ham aniqroq tasavvurlarga ega bo'lishga yordam beradi.

«O‘qish» ko‘p hollarda shunchaki so‘zlardan harf yasash yoki bir shakldan ikkinchisiga (masalan, yozmadan og‘zakiga) o‘chirish, yoki hatto ovoz chiqarib o‘qish, deb tushunilardi, vaholanki, bu baholashning maqsadi keng qamrovli bo‘lib, puxta tekshirishlar asosida amalga oshiriladi.

O‘qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma’noni o‘zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog‘lashni o‘z ichiga oladi.

U metakognitiv kompetensiyalarini, ya’ni matn bilan ishlashda kerak bo‘ladigan turli strategiyalarini bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. Metakognitiv kompetensiyalar o‘quvchi fikrlaganda, kuzatganda va o‘zining o‘qish mashg‘ulotini ma’lum maqsadga yo‘nal-tirganda faollandashadi.

Garchi «savodxonlik» atamasi biror shaxsning o‘rganish, foydalanish, yozilgan va nashr etilgan ma’lumotni yetkazish kabi salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, bu atama, odatda, shaxsning ma’lum bir fan yoki sohaga oid bilimini anglatadi. Mazkur ta’rif «O‘qish savodxonligi» atamasini yoritib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘plab vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun o‘qishning faol, maqsadli va qulay shaklini ifodalash fikriga mos keladi.

PISA ko‘p sonli o‘quvchilarini baholaydi. Bu o‘quvchilarning ba’zilari ilmiy yoki kasbiy sohani egallash uchun universitetga borishadi, boshqalari ishga joylashish uchun zarur tayyorgarlik ko‘nikmalarini egallaydilar, ba’zilari esa umumiy o‘rta ta’limni tamomlashi bilanoq oddiy ishga joylashadilar. Ularning ilm yoki mehnat faoliyatini tanlashidan qat’i nazar, o‘quvchilarning fuqarolik jamiyatida hamda shaxsiy hayotdagi faol ishtiroklarida o‘qish savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**...tushunish, foydalanish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirish...**

«Tushunish» so‘zi «o‘qib tushunish» atamasining ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qish orqali o‘quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma’lumotning ma’lum darajada integratsiyasi talab etiladi.

Hatto o‘qishning dastlabki bosqichlarida o‘quvchi belgilarga oid bilimi (masalan, harflarni tanishi) orqali harflardan so‘z yasashi va so‘zlarning ma’nosiga tayangan holda matndan ma’no keltirib chiqarishi zarur bo‘ladi.

«Foydalanish» so‘zi vazifasi va amalda qo‘llanishiga ko‘ra ma’lum bir o‘qigan narsamizdan biror maqsadda foydalanishni anglatadi.

PISA – 2018 da «baholash» atamasidan: «O‘qish aksariyat hollarda maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi», degan fikrni ifodalash uchun foydalilgan. Shundan kelib chiqib, o‘quvchi matndagi fikrlar va muallif nuqtayi nazarining aniqligini hamda matnning o‘quvchi maqsadiga mos kelishini shu kabi omillar asosida baholashi kerak bo‘ladi.

«Mulohaza yuritish» shuni anglatadiki, bunda o‘quvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtida o‘zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanshadi. Har bir o‘qish harakati mulohazani talab qiladi, ya’ni o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni tashqi ma’lumotlar bilan bog‘laydi va tahlil qiladi.

Ayni vaqtida aniq bosqichlarda va asta-sekinlik bilan o‘quvchining matn bo‘yicha mulohazalari dunyo haqidagi tushunchalarini o‘zgartirishi mumkin. Mulohaza yuritish o‘quvchilardan matn mazmunini tushunish, o‘zlarining mavjud bilimi va tushunchalarini amalda tatbiq qilish yoki matn shakli va tuzilishi xususida fikr yuritishni talab etadi.

Ta’rifdagi mana shu «tushunish», «foydalanish», «baholash» va «mulohaza yuritish» ko‘nikmalarining har biri muhim hisoblanadi, ammo ularning hech biri o‘qish savodxonligi ta’rifini to‘liq tavsiflash uchun yetarli emas.

### **...matnlar...**

«Matn» jumlesi yozilish shakliga ko‘ra qo‘lyozma, nashr etilgan yoki elektron shaklda bo‘ladi. Matnlar, shuningdek, ko‘rgazma vositalari, jumladan, diagrammalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar, grafiklar va komikslarni ham qamrab oladi.

Chop etilgan matnlardan farqli ravishda, dinamik matnlar boshqa-charoq yondashuvlarni talab qiladi va bunday matnlar bilan ishslash uchun o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy yondashuvlarini yaratishlari lozim bo‘ladi.

«Matnlar» atamasi o‘zining yozuv tili bilan bog‘liqligi, adabiy va ma’lumot olishga doir o‘qish bilan osongina bog‘lana olganligi sababli «ma’lumot» atamasi o‘rniga tanlangan.

### **...shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishish yo‘lida...**

Ushbu jumla o‘qish savodxonligi muhim o‘rin tutadigan, xususiydan jamoatchilikka, mакtabдан to ishga, rasmiy ta’limdan toki butun hayot

davomida o‘rganishga, faol fuqarolik holatlarining to‘liq g‘oyasini qamrab olish uchun tanlangan.

Misol uchun, savodli kishilarda ishga joylashishga imkoniyatlari yuqori bo‘ladi va bunday shaxslar jamiyat institutlari haqida ijobiy fikrda bo‘ladilar. O‘qish savodxonligining yuqoriroq darajada rivojlanishi, jamiyatda jinoyatchilikning kamayishi va sog‘liqqa ko‘proq e’tibor berishga olib kelishi bilan aloqador deb topilgan.

## 1.2. DOMENNING TUZILISHI

O'qish kundalik hayotda sodir bo'lgani sababli keng tarqalgan va keng qamrovli jarayondir. Baholash o'qish savodxonligining ko'plab jihatlarini aniq ko'rsatuvchi yo'nalishlar asosida yaratiladi. Mezonlar, o'z navbatida, test yaratilishiga va o'quvchining bilim olishiga va taqdim etilishi mumkin bo'lgan dalillarga qaratilgan bo'ladi.

O'quvchi o'qish jarayonida o'quvchi bilan bog'liq bir qator omillarni, jumladan, hayotiy tajriba, motivatsiya va kognitiv ko'nikmalarni tatbiq qiladi. Shuningdek, o'quvchining matnni tushunishiga matn bilan bog'liq omillar (masalan, matn tilining tushunarligi, matn turi va hokazo) hamda topshiriq bilan bog'liq omillar (matn bilan ishlashdan maqsad) ham ta'sir qiladi.

### O'qish savodxonligiga ta'sir etuvchi omillar



PISA o'qish savodxonligini mashqlardan va matn omillaridan foydalinish orqali baholaydi. Qo'shimcha so'rovnomada esa qiziqish, tartib va tajriba kabi o'quvchilarning ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi.

PISAda topshiriqning murakkabligi matn xususiyatlari va topshiriq maqsadlarini boshqarishiga asosan farq qilishi mumkin, bu esa turli xil aqliy jarayonlarni talab qiladi. Shunday qilib, PISA o'qish savodxonligini baholash, o'quvchilarning o'qish jarayonlarini (o'quvchilarning matnga bo'lgan aqliy yondashuvlarini), turli matnlar vositasida baholashga qaratilgan.

Ushbu xususiyatlar baholashda foydalinish uchun yo'lga qo'yilishi lozim, ya'ni bu xususiyatlarning har biri qabul qilishi mumkin bo'lgan turli qiymatlarni ko'rsatishi kerak. Bu esa test ishlab chiquvchilarga o'zları foydalananadigan materiallar va ular yaratgan topshiriqlarni tasniflash va ushbu ma'lumotlar hisobotidan va olingan natijalaridan foydalinish imkonini beradi.

## 1.3. MATNGA KIRISH VA MA'LUMOTLARNI OLİSH

Jadvallar, matn bo'limlari yoki butun kitoblardan ma'lumotlarni qidirishning o'zi bir mahoratdir. Axborotni qidirish o'quvchilarning topshiriq talablarini tushunishi, matn tuzilishi haqidagi bilimi (masalan, sarlavhalar, paragraflar) hamda matnning mavzuga aloqadorligini baholash qobiliyatlariga asoslangan bo'ladi.

Garchi ba'zi topshiriqlar matndan aniq bir so'z yoki jumlalarni topishni talab qilsa-da, ko'p hollarda zarur ma'lumotni topish va undan xulosalar chiqarish orqali o'qish savodxonligi tekshiriladi.

**Tegishli matnni qidirish va tanlash.** Tajribali o'quvchilar faqatgina bitta matnni o'qiganda emas, balki bir necha matnlarni o'qiganda ham ma'lumotlarni tanlay olishadi.

Internet muhitidagi ma'lumotlar ko'p hollarda o'quvchining tahlil qila oladigan miqdoridan ko'ra ancha ko'p bo'ladi. Bunday bir necha matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishi zarur. O'quvchining matn sifatini baholash bo'yicha ushbu qarorlari ba'zan qisman, ba'zan xuddi internet havolalarda berilgan ma'lumotlar kabi tushunish qiyin bo'lgan ma'nolar yordamida qabul qilinadi, shuning uchun ham o'quvchining matnlar to'plamidan zarur matn qismini topish va tanlash qobiliyati o'qish savodxonligining ajralmas qismidir. PISA dasturida matnni qidirish va topshiriqlarni tanlash matn ko'rsatkichlari, masalan, to'plam, ma'lumot manbayi (muallif, jurnal va sana)ni va qidiruv natijalarini ko'rsatish kabi aniq biriktirilgan havolalarni talab qiladi.

**Tushunish.** Ko'plab o'qish mashg'ulotlari matnda berilgan ma'noni tushunish uchun matnning kengaytirilgan qismlari tahlili va integratsiyasini talab etadi. Matnni tushunish («anglash» deb ham nomlanadi) «vaziyat modeli» deb nomlangan o'quvchi tomonidan yaratilgan matn nimaga oid ekanligi haqidagi aqliy ifoda sifatida ko'riliши mumkin.

**Matnnning juz'iy ma'nosini ifodalashni o'rganish** o'quvchidan kichik matnlarni va jumlalarni tushunishni talab qiladi. Matnni tushunish zarur ma'lumotni topshiriq va savollarga to'g'ridan to'g'ri moslashtirishga olib keladi. O'quvchi o'z imkoniyati doirasida ma'lumot-

larni darajalarga bo‘lishi, ularning ustuvorlik darajalarini belgilashi yoki hajmini kichraytirishiga to‘g‘ri kelishi mumkin.

***Esda tuting!*** Butun matn, jumladan, asosiy ma’noni topish, matnni xulosalash yoki matnga sarlavha tanlash kabi integratsiyani talab qiluvchi topshiriqlar aralash topshiriqlar hisoblanadi.

**Integratsiya qilib matn yaratishni ifodalash** har bir gap bilan alohida ishslashdan to to‘liq matn bilan ishslashgacha bo‘lgan jarayonni talab etadi. O‘quvchi turli xil xulosalarni, oddiy bog‘langandan to murakkabroq ma’no aloqadorligigacha bo‘lgan turini yaratishi lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarga birdan ortiq matn berilganda turli xil matn qismlarida joylashgan ma'lumot qismlarini o‘zaro umumlashtirish va xulosalash kerak bo‘ladi. Matnning bir necha qismlarida berilgan ma'lumotni umumlashtirishda vujudga keladigan yagona muammo bu ma'lumotlarning bir-biriga mos kelmasligi yoki farq qilishidir. Bunday hollarda o‘quvchilar tafovutni to‘g‘ri qabul qilishi va uni hal qilishi kabi rivojlanish jarayoni bilan mashg‘ul bo‘lishi kerak.

## 1.4. BAHOLASH VA MULOHAZA YURITISH

Tajribali o'quvchilar matnda berilgan kichik ma'noni ham ilg'ay oladilar. Ular matn shakl va mazmuni xususida mulohaza yurita oladilar va ma'lumot aniqligi, uning sifatini tanqidiy baholaydilar.

**Sifat va ishonchni baholash.** Tajribali o'quvchilar matndagi ma'lumotning ishonchliligi va sifatini, ya'ni ma'lumot yaroqli, yangi, to'g'ri va bir yoqlama emasligini aniqlay oladilar. Baholash jarayoni ba'zan o'quvchidan ma'lumot manbasini aniqlash va baholashni talab etadi, jumladan, muallif tajribalimi, yaxshi ma'lumotga ega yoki obyektivmi va hokazo.

**Shakl va mazmun haqida mulohaza yuritish.** Tajribali o'quvchilar matn yozilishining uslubi va sifati haqida mulohaza yuritishi lozim bo'ladi. Bu mulohazakorlik muallifning fikri va maqsadini qanday ifodalaganini va matn yozilishining shakli va mazmun o'rtasidagi aloqadorlikni baholay oladi.

Mulohaza yuritish o'quvchining matndan tashqari fikri, munosabati va bilimi bilan matnda keltirilgan ma'lumot va kishining shaxsiy tajriba va fikrlash doirasidan kelib chiqib berilgan ma'lumotni bog'lab o'rganishni ifodalaydi. Mulohaza yuritishda o'quvchidan o'zining tajriba yoki bilimini va turli farazlarini taqqoslab, qiyoslashi talab etiladi.

Baholash va mulohazakorlik, shubhasiz, o'qish savodxonligining bir qismi, ammo ularning salmog'i bugungi kunda o'quvchi duch keladigan ma'lumotlar xilma-xilligi va ularning miqdori bilan o'sib bormoqda.

**Tafovutlarni aniqlash va ular bilan ishlash.** Ko'p qismli va qarama-qarshi fikrli matnlarga duch kelganda o'quvchilar shu kabi tafovutlardan va ular bilan ishlash usullaridan xabardor bo'lishlari lozim. Odatda, tafovutlar bilan ishlash o'quvchidan o'zining ishonchli manbalariga asoslanib, qarama-qarshi fikrlarni aniqlashi va ularning ishonchlilagini baholashini talab etadi.

Ushbu ko'nikmalar zamonaviy o'qishning ko'p qismini o'z ichiga olgani sababli, 15 yoshli bolalar xilma-xil matnlarni umumlash-tirish, taqqoslash, tushunish kabi qiyinchiliklarga nechog'liq tayyor ekanliklarini aniqlash muhim masala hisoblanadi.

## 1.5. TOPSHIRIQNI BAJARISH JARAYONI

**Har qanday baholashda, zero, ko'plab kundalik o'qish vaziyatlarida ham o'quvchilar ba'zi turdag'i uyga vazifalar va qo'shimcha topshiriqlar olishganda ham matn bilan ishlash-lariga to'g'ri keladi.**

O'qish savodxonligi o'quvchidan o'z qobiliyatlaridan to'g'ri foydalana olishni talab etadi: u xoh topshiriq uchun o'qish bo'lsin, xoh shu maqsadga erishish yo'lidagi rivojlanishni kuzatish bo'lsin, xoh mashg'ulot davomida o'zlarining uslub va maqsadlari yo'lida o'z-o'zini boshqaruv bo'lsin.

Topshiriqqa yo'naltirilgan maqsadlar o'quvchini topshiriq bilan bog'liq matn yoki jumlalarni izlashga undaydi. Metakognitiv kuzatuv jarayonlari butun o'qish mashg'uloti davomida maqsadni tez-tez yangilab turishga imkon yaratadi. Topshiriqni bajarishda matnni qayta ishlash jarayonining tag zamiriga e'tibor qaratilib, ushbu jarayonning turli metakognitiv darajalarini qamrab oladi.

O'quvchining topshiriq talablariga shaxsiy yondashuvi topshiriqni bajarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, o'qish maqsadining tuzilishi o'quvchining qiziqish va tashabbuslaridan kelib chiqib vujudga keladigan maqsadlar kabi muayyan topshiriqlar yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Shunga qaramay, PISA tadqiqotida o'qish savodxonligini baholash faqatgina o'quvchining berilgan topshiriqni bajarish uchun tashqi harakatlarni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishga bo'lgan maqsadni inobatga oladi.

## 1.6. MATNLAR

O‘qish, albatta, o‘quvchi uchun materialni talab qiladi. Baholashda o‘sha materiallarda – matn bo‘laklari yoki muayyan topshiriqqa asoslangan matnlar jamlanmasi – malakali o‘quvchi o‘qib, topshiriqda berilgan masalani yechishi uchun yetarli ma’lumot berilgan bo‘lishi lozim.

Garchi matnlarning ko‘p turi mavjudligi va har qanday baholash keng qamrovli matnlarni o‘z ichiga olishiga qaramasdan, o‘quvchilar uchratadigan ko‘plab turli xildagi matnlarning bir to‘xtamga kelingan aniq toifasi yo‘q. Elektron matbuotning va janrga boy matnlarning hamda matnga asoslangan muloqot xizmatlarining vujudga kelishi, garchi ba’zilari kelgusi 10 yillikda yo‘q bo‘lib ketishi, ba’zilari esa shu vaqt oralig‘ida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lsa-da, bunday matnlar yana ham murakkablashadi.

Dinamik matnlar qulayliklari boshqa bo‘lim, sahifa va veb-sahifalarga o‘tish uchun biriktirilgan giperhavolalardan iborat. Mukammal qidiruv qurilmasi maxsus qidiruv kalit so‘zлari ilovalarini beradi yoki shu so‘zлarni matnda belgilab beradi hamda elektron xabarlashish, forum va tezkor xabarlashish kabi o‘zaro matn asosida muloqotga asoslangan ijtimoiy muloqot qulayliklari bilan ta’minlaydi.



**2018-yildagi PISA tadqiqoti doirasi matnning  
to‘rt xil yo‘nalishini belgilaydi:**

- manba (bitta, bir nechta);
- tuzilish (yaratuvchi va yo‘naltiruvchi);
- shakl (davomli, qisqa, aralash);
- tur (tasvirlash, hikoya qilish, tushuntirish, munozara, yo‘riqnomalar, muloqot, dalolatnomalar).

Mana shu to‘rt xil matn turlarida tayyorlangan matn materiallari yo‘nalishning keng qamrovligini belgilaydi va an‘anaviy va yangi paydo bo‘layotgan o‘qish mashg‘ulotlarini ifodalaydi.

**Matn shakli.** PISA-2000 doirasi va baholash dasturining o‘zagi bo‘lgan matnlarni tasniflashning muhim usuli uzun va qisqa matnlarni bir-biridan farqlashni taqozo etadi.

Uzun matnlar – bu odatiy matnlar jamlanmasi bo‘lib, o‘z navbatida, sahifalarga taqsimlangan bo‘ladi.

Qisqa matnlar ko‘p hollarda bir qancha varaqlarning jamlanmasi shaklida beriladi.

Aralash matnlar ko‘plab o‘zgarmas va dinamik matn shakllaridan iborat.

Uzun va qisqa shakldagi matnlar turg‘un va harakatli (dinamik) ko‘rinishda bo‘lishi mumkin

**Uzun matnlar.** Uzun matnlar sahifalarga ajratilgan birliklardan iborat bo‘ladi. Ularga misol sifatida ro‘znomalardagi maqolalar, insholar, romanlar, qisqa hikoyalar, taqrizlar va xatlarni keltirishimiz mumkin.

Matnlar o‘quvchilar farqlay olishi uchun sarlavhalar va mavzu bilan ajratib tuzilgan. Bunday belgilar matn chegaralari (masalan, bo‘limlar yakuni)ni ko‘rsatuvchi belgilardan iborat.

Shuningdek, kiritmalar ham ma’lumotni tartiblashga yordam bera-di. Masalan, tartibni bildiruvchi so‘zlar (birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan) har bir bo‘limning bir-biri va butun matn bilan o‘zaro qanday bog‘langanini ko‘rsatadi. Ko‘makchili birikmalar (shuning uchun, shu sababli va h.k.) va bog‘lovchilar matn qismlari o‘rtasida sabab-natija jihatdan aloqadorligini bildiradi.

**Qisqa matnlar.** Qisqa matnlar uzun matnlardan farqli o‘laroq, ma’lum bir tartibda bo‘ladi, shuning uchun ham ular turlicha o‘qish usullarini talab etadi. Qisqa matn ko‘rinishlari bular: ro‘yxat, jadval, grafik, diagramma, e’lon va katalog, ilova va arizalardir. Bunday matn ko‘rinishlari o‘zgarmas va dinamik bo‘lishi mumkin.

**Aralash matnlar.** Ko‘plab o‘zgarmas va dinamik matnlar – yagona, bir-biri bilan ma’no jihatdan bog‘liq bo‘lgan qisqa va uzun matn shakllaridan iborat, shuning uchun ular aralash matnlar deyiladi. Aralash matn turlariga rasmiy sahifalar yoki tagida tushuntirish berilgan sahifalar kiradi.

Aralash matn turg‘un matnli jurnallar: ma’lumotlar kitobi yoki dalolatnomalar uchun umumiyl shakl bo‘lib, ma’lumotni yetkazishda mualliflar turli ifoda shakllaridan foydalanadi.

Dinamik matnlar ichidagi rasmiy veb-sahifalar ham, odatda, aralash matn hisoblanadi, masalan, xabarga asoslangan matnlar, ro‘yxatlar jamlanmasi, paragraflar va ko‘p hollarda sahifalar. Xabarga asoslangan matnlar sirasiga onlayn arizalar, elektron xatlar (e-mail) va forumlar, uzun va qisqa shakldagi matnlar kiradi.

## 1.7. O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

O‘qish savodxonligi doirasidagi anglash, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligidagi bilim saviyasini baholash uchun mo‘ljallangan savol va topshiriqlarda aks etgan bo‘lishi kerak.

**Harakatlar rejasi (Ssenariy).** O‘qish ma’lum bir maqsad yo‘lida amalga oshiriladigan maqsadli harakatdir. Ko‘plab an‘anaviy o‘qishni baholashda, imtihon topshiruvchilariga bir-biriga mazmun jihatdan bog‘lanmagan ko‘plab umumiyl mavzular berilgan. O‘quvchilar har bir matndagi savollarga alohida-alohida javob berishgan, so‘ng avvalgisi bilan bog‘lanmagan keyingi matnga o‘tishgan.

Bu an‘anaviy shaklda o‘quvchilarning keyinroq keladigan matnga javob berish paytida avvalgi o‘qigan ma’lumotlarini «unutib» qo‘yishi kutilgan. Natijada, ba’zi ajratilgan savollarga alohida javob berilganda o‘qish uchun umumiyl maqsad yo‘qoladi.

Harakatlar rejasi asosida baholash usuli, aksincha, o‘quvchilarning topshiriq bilan ishlab, bilimini namoyon etishi orqali ularning nimaga qodir ekanliklarini nisbatan aniq baholash imkonini beradi.

PISA – 2018 baholash tizimidagi harakatlar rejasida o‘quvchilarning umumiyl maqsadli o‘qishlarini baholash uchun yuqori darajadagi topshiriqlarni bajarishlariga yordam beruvchi mavzu jihatdan bir-biri bilan bog‘liq matnlar to‘plami mavjud.

**Topshiriqlar.** Har bir ssenariy bir yoki undan ortiq topshiriqlardan tashkil topadi. Har bir topshiriqda o‘quvchidan an‘anaviy turmush bilan bog‘langan matnlarga doir savollarning ham berilishi hisobga olingan. O‘quvchi bir nechta matnlarni qiyoslab, ancha murakkab bo‘lgan topshiriqlarni bajarishi, internetdan qidiruv natijalarini tahlil qilishi hamda matnlardagi ma’lumotlarni tasdiqlashi mumkin. Har bir topshiriq belgilangan doirada berilgan bir yoki undan ortiq faoliyatlarini baholashga mo‘ljallangan.

O‘quvchilarning qobiliyatlarini baholash uchun ssenariydagi topshiriqlar qiyinlik darajasiga ko‘ra eng osonidan eng murakkabiga qadar tartiblanadi. Misol uchun, bir o‘quvchi unga berilgan dastlabki topshiriqda qidiruv natijasi bo‘yicha muayyan hujjatning joylashuvini topishi zarur bo‘lishi mumkin, ikkinchi topshiriqda esa matnda aniq ta’kidlangan ma’lumot yuzasidan savollarga javob berish so‘ralishi


ko‘zda tutiladi. Uchinchi topshiriqda o‘quvchi birinchi matndagi muallifning fikri ikkinchi matndagi fikr bilan o‘xhash ekanligini anglashiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shu yo‘l bilan murakkab ko‘p qismli ssenariy «hamma yoki hech kim uchun mashg‘ulot» bo‘lib qolmay, balki haqqoniy matnlar jamlanmasi vositasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalari asosida turli darajada baholanadi.

# TOPSHIRIQ NAMUNALARI




## CHAD KO‘LI

1-rasmda Sahara cho‘lining Shimoliy Afrika qismidagi Chad ko‘li chuqurligining o‘zgarishi berilgan. Chad ko‘li eramizdan, taxminan, 20 ming yil avval so‘nggi muz asri davomida butunlay yo‘qolib ketgan. Taxminan, eramizdan 11 ming yil avval u yana paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda Chad ko‘lining chuqurligi eramizning 1000-yilidagi holatini saqlab turibdi.



2-rasmdagi diagrammada Sahara qoyalarida aks ettirilgan bir qancha san’at namunalari (g‘orlardan topilgan qadimgi rasm va tasvirlar) va hayvonot dunyosining o‘zgarishi berilgan.

Saharadagi qoyaga o‘yib tasvirlangan rasmlar. Hayvonot olamining o‘zgarishi.





## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### CHAD KO'LI

Chad ko'li haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, quyida berilgan savol-larga javob bering.

#### 1-savol

Bugungi kunga kelib, Chad ko'lining chuqurligi qanchani tashkil etadi?

- A. Taxminan ikki metr.
- B. Taxminan o'n besh metr.
- C. Taxminan ellik metr.
- D. Ko'l butunlay yo'q bo'lib ketgan.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumotni topish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'lmagan.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

*A.Taxminan ikki metr atrofida.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Birinchi rasmdagi qaysi davr (taxminan qaysi yillar) grafikning boshlang'ich nuqtasiga mos kelishini aniqlang.



#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumotni topish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'lmagan.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Quyidagi javoblar to'liq qabul qilinadi:**

- Eramizgacha bo'lgan 11 000-yilda (10 500 va 12 000-yillar atrofidagi deb berilgan javoblar ham qabul qilinadi).
  - 11 000.
  - *Eramizdan avvalgi 11 000.*
  - *Eramizdan avvalgi 10 500.*
  - *Eramizdan avvalgi 11 000-yillar atrofida.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

Masalan:

- Eramizdan avvalgi 10 000-yil (masshtabdan foydalanishda xato qilgan)
- Eramizdan avvalgi 20 000-yil
- Eramizdan avvalgi 8 000-yil (boshqa raqamni ko‘rgan)
- Eramizdan avvalgi 4 000-yil

### 3-savol

Nima uchun muallif grafikdagi boshlang‘ich nuqtani aynan shu yildan olgan?



### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit bo‘lмаган.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

### Quyidagi javoblar to‘liq qabul qilinadi:

- Chad ko‘li eramizdan, taxminan, 20 000 yil avval butunlay yo‘qolib ketganidan so‘ng, eramizdan 11 000 yil avval u yana paydo bo‘lgan.
- U yana o‘scha davrda paydo bo‘lgan.
- Eramizdan avvalgi 11 000-yillarda u qayta paydo bo‘ldi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### 4-savol

#### 2-rasm taxminan quyidagiga asoslanib berilgan:

A. Qoyalarga o‘yib chizilgan hayvonlar Chad ko‘li hududlarini makon qilib olgan.

B. Hayvonlarni chizgan rassomlar rasm chizish bo‘yicha juda mahoratli bo‘lishgan.

C. Hayvonlarni chizgan rassomlar uzoq manzilga sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

D. Qoyalarga o‘yib chizilgan hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishga urinishlar bo‘lмаган.

### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin etish.

*Matn formati:* Yaxlit bo‘lмаган.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:**

*A. Qoyalarga o'yib chizilgan hayvonlar Chad ko'li hududlarida o'sha davrda chizilgan.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### **5-savol**

Quyidagi topshiriqni bajarish uchun birinchi va ikkinchi rasmdagi ma'lumotlarni o'zaro umumlashtirishingiz lozim.

**Sahara yaylovlaridagi qoyalarga o'yib chizilgan gippopotam, karkidon va zubrlarning yo'qolib ketishi...**

- A. Eng so'nggi Muzlik davrining boshlanishiga to'g'ri keladi.
- B. Chad ko'li chuqurligining sathi yuqori bo'lgan davrning o'talariga to'g'ri keladi.
- C. Ming yillardan ko'p davr mobaynida Chad ko'li chuqurligining sathi pasaygan davrga to'g'ri keladi.
- D. Uzluksiz quruq davr boshlariga to'g'ri keladi.

### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Matnni talqin etish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'limgan.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob qabul qilinadi:**


C. Chad ko'li chuqurligining sathi ming yillar davomida pasaygan davrga to'g'ri keladi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

## «AKOL» TASHKILOTI XIZMATCHILARI UCHUN GRIPPGA QARSHI KO'NGILLI IMMUNIZATSIYA DASTURI

Qishda grippni osongina yuqtirib olish mumkinligi sizga yaxshi ma'lum. Shuningdek, bu kasallik bir necha hafta davom etishi mumkin.


Gripp virusiga qarshi kurashning eng yaxshi usuli bu tanani sog'lom saqlashdir. Eng avvalo, immun tizimining viruslar bilan kurashishiga yordam berishi uchun kundalik badantarbiya bilan shug'ullanish va meva-sabzavotlarga boy taomlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi.



Ushbu yuqumli kasallikning oldini olish uchun qo'shimcha profilaktika chorasi sifatida «Akol» tashkiloti o'z xodimlariga grippga qarshi emlanishni taklif etishga qaror qildi. 17-noyabrdan boshlab hafta davomida ishxonada, ish kunining birinchi yoki ikkinchi yarmida emlash o'tkazish uchun hamshira bilan shartnomaga tuzilgan. Emlanish tashkilot xodimlari uchun qulay va bepul.

**Qatnashish ixtiyoriy.** Har bir xodim emlanishdan avval allergiyadan aziyat chekmayotgani va qilinadigan emlashning nojo'ya ta'siri bo'lishi mumkinligi haqida bilishini tasdiqlovchi hujjatni imzolaydi.

Tibbiyot xodimlarining tasdiqlashicha, emlash gripp bilan kasallansmasligingizga kafolat beradi, ammo u charchoq, ozroq isitma va qo'ldagi og'riq paydo qilishi mumkin.



## **Kimlar emlanishi kerak?**

O‘zini virusdan himoya qilishni istagan har bir odam emlanishi mumkin.

U ayniqsa 65 yoshdan yuqori bo‘lgan insonlarga tavsiya etiladi. Lekin yoshga qaramay, u HAR KIMGA, ya’ni surunkali xastaliklardan aziyat chekuvchilarga, ayniqsa, yurak kasalligi, qandli diabet, bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarga zarur.

Jamoada faoliyat ko‘rsatayotgan HAR BIR xodimning zararlanish xavfi bor.

## **Kimlarga nisbatan emlashga qarshi ko‘rsatmalar belgilangan?**

Tuxumga sezuvchanligi yuqori bo‘lgan odamlar, homilador ayollar va kuchli bezgakdan aziyat chekayotgan odamlarni emlash tavsiya etilmaydi.

Agar davolanayotgan bo‘lsangiz, shifokor bilan davolanishingiz va emlanish o‘rtasida qarshi ko‘rsatmalar bor-yo‘qligi haqida maslahatlashing. Oldin grippga qarshi emlanganiningizda bu sizda kutilmagan yomon asoratlarni keltirib chiqarmaganmi?

Agar siz 17-noyabrdan boshlab hafta davomida immunizatsiyadan o‘tishni rejalashtirayotgan bo‘lsangiz, 7-noyabr juma kuniga qadar Iroda Nizomovnaga murojaat qiling. Kuni va vaqtining muddati hamshiraning bo‘sh vaqt imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Bu vaqt «Akol» tashkilotining ko‘pgina xodimlari uchun qulay bo‘lishini ham nazarda tutadi.

Agar emlanishni qish boshlanishidan oldin amalga oshirmoqchi bo‘lsangiz, biroq siz uchun belgilangan vaqt ma’qul bo‘lmasa, marhamat, Iroda Nizomovnaga murojaat etishingiz mumkin.

Agar xohlovchilar yetarlicha yig‘ilsa, balki qo‘srimcha muddat belgilanishi ham mumkin.

Qo‘srimcha ma’lumot olish uchun Iroda Nizomovnaga 5577 telefon raqami orqali murojaat eting.

## **SIZGA MUSTAHKAM SOG‘LIQ TILAYMIZ!**

*Sobirova Iroda Nizomovna – «Akol» tashkilotining xodimi.*

*U ushbu tashkilot xodimlari uchun yuqoridagi ikki betli ma’lumot varaqasini tayyorlagan. Bu ma’lumotlar sizga savollarga javob berishingizda yordam beradi.*



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### GRIPP

#### 1-savol

**Quyidagi qaysi xizmatlar «Akol» immuniziatsiyalash dasturi orqali tavsiya etiladi?**

- A. Qish davomida har kuni badantarbiya bilan shug'ullanish.
- B. Ish vaqtida immunizatsiyani o'tkazish.
- C. Qatnashuvchilarga kichik mukofotlar.
- D. Emlashni shifokor amalga oshiradi.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumotni topish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

#### Javob to'liq qabul qilinadi:

B. Ish vaqtida immunizatsiyani o'tkazish.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Biz ma'lumot varaqasi mazmunini muhokama qilishimiz mumkin (ya'ni unda nima haqida gapirilmoqda).

Biz uning uslubini muhokama qilishimiz mumkin (ya'ni u qanday yozilgan).

Iroda Nizomovna ushbu ma'lumotni ezgulikka xayrixoh va ishonchli bo'lishini istagan.

Matn (ma'lumot varaqasi)dagi jihozlovchi detallar, rasmlar, matnning joylashish tartibi va nutq uslubiga ko'ra o'z fikrlaringizni bayon eting.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Matnga to'g'ridan to'g'ri murojaat etish va uning uslubini «xayrixoh bo'lish» so'zi bilan hamohangligini aniqlash talab etiladi. Javobda hech bo'lmaganda quyidagilarning biri bo'lishi kerak:

1. Matnning aniq bir qismida o'ziga xoslik taraflari detallarigacha yoritib berilgan (materiallarni joylashishi, bayon etish uslubi, rasmlar yoki boshqa grafika)

2. «Xayrixoh» va «ishonchli» so‘zlaridan farqli baho beruvchi so‘zlar ishlatilgan (E’tibor bering: «qiziqarli», «o‘qishga oson», «tushunarli» degan so‘z va so‘z birikmalari qabul qilinmaydi).

Masalan:

- Yo‘q, shpritsning rasmini matnning bosh tarafiga joylashtirish yaxshi fikr emas. Bu vahimali ko‘rinadi.
- Virusning multiplikatsiya uslubida berilishi xayrixohlik tuyg‘usini uyg‘otadi (bitta illustratsiyaning ko‘rinishi haqida gap ketadi).
- Yo‘q, rasmlar bolalarga xos qilingan, jiddiy emas va matnga mos kelmaydi.
- Ha, uslub keskinlikni yumshatishga xizmat qilgan va norasmiy («keskinlikni yumshatishga xizmat qilgan va norasmiy» degan o‘z so‘zlarini matndagi topshiriqning o‘ziga xos taraflarini tavsiflash uchun ishlatgan).
- Yo‘q, matnning yozilishi juda rasmiy (bahsli, ammo o‘z shaxsiy fikrini bildiradigan baho beruvchi «rasmiy» so‘zi ishlatilgan).

**Javob qisman qabul qilinadi:** Matnga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etib, «xayrixoh va ishonchli bo‘lish» mulohazalarini emas, balki mazmunning bog‘lanishini ifodalaydi. Irina Nikolayevna bu ishni qay darajada uddalaganligi haqida aniq yoki noaniq ma’lumotni tasdiqlaydi.

Masalan:

- Yo‘q, emlash zaruriyligi haqidagi matn xayrixohlik tuyg‘usi va ishonchni ifodalamaydi.
- Ha, u bu ishning juda yaxshi uddasidan chiqdi. U grippga qarshi emlanish uchun juda ko‘p imkoniyatlar va qulay vaqt ni taklif etyapti. U shuningdek sog‘liqni mustahkamlash uchun yaxshi maslahatlar beradi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Noto‘g‘ri yoki noo‘rin javob berilsa.

Masalan:

- Ha, matn xayrixohlik mazmuniga ega va ishonchli (Bu so‘zlar qandaydir o‘ziga xoslik bilan mutanosib emas).
- Yo‘q, chunki ma’lumotning bir qismi noto‘g‘ri (mazmunga e’tibor qaratadi va bunda «xayrixoh» va «ishonchli» so‘zlarini bilan hech qanday aloqa yo‘q).
- Ha, rasmlar ishonarli hamda uslubi ham tushunarli («Rasmlar ishonarli» degan gap savolning o‘zida ishlatilgan gapdan chetga chiqmagan. «E’lonning uslubi ma’qul bo‘lgan» degan fikr o‘ta noaniq).
- U bu ishning uddasidan chiqqan, oson o‘qiladi va tushunarli (ishlatilgan so‘zlar yetarli darajada emas).
- Mening fikrimcha, u bu narsaning yaxshi uddasidan chiqqan. U qiziqarli matn va rasmlar tanlay olgan (Rasmlar izohlanmagan, «qiziqarli matn» degan ifodalar tushunarsiz).

Yoki aniq tushunchaga ega bo‘lmagan, haqiqatdan uzoq bo‘lgan noo‘rin javob berilsa:

- Ha, hamma emlanishi kerak.
- Yo'q, rasmlarning matnga hech qanday aloqasi yo'q (noaniq).
- Ha, matnda grippdan saqlanish haqida qisqacha ma'lumot berilgan. (Noo'rin, matnning mazmuniga e'tibor qaratilgan, ammo qo'yilgan savol bilan bog'liqlik yo'q).
- Ha, u faqat ma'lumotlarni sanab beradi (noo'rin).
- Ha, chunki hech kim kasal bo'lishni xohlamaydi. Hamma sog'lom bo'lishni xohlaydi (noo'rin).

### 3-savol

Ma'lumot varaqasida aytilishicha, agar siz gripp virusidan himoyalanmoqchi bo'lsangiz, unda grippga qarshi emlash...

A. To'g'ri ovqatlanish va badantarbiya qilishdan samaraliroq, faqat xavfli.

B. Foydali, lekin u to'g'ri ovqatlanish va badantarbiya qilishning o'rnini bosolmaydi.

C. To'g'ri ovqatlanish va badantarbiya qilish kabi samaraga ega, ortiqcha zo'riqishni talab etmaydi.

D. Agar siz badantarbiya bilan shug'ullansangiz va to'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilsangiz, emlash talab etilmaydi.

### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn Formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

#### Javob to'liq qabul qilinadi:

B. Foydali, lekin u to'g'ri ovqatlanish va badantarbiya qilishning o'rnini bosolmaydi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### 4-savol

Ma'lumotlar varaqasida quyidagilar qayd etilgan:

Irina Nikolayevna ma'lumot varaqasini tarqatganidan so'ng, uning hamkasabasi unga «Kimki o'zini virusdan himoya qilishni xohlasa», degan so'zlarni olib tashlashi kerakligini, chunki bu so'zlar odamlarni chalg'itishi mumkinligini aytди. Siz bu fikrni ma'qullaysizmi? Haqiqatan ham bu fikr odamlarni chalg'itishi mumkinmi?

O'z javobingizni tushuntirib bering.

#### KIMLAR EMLANISHI KERAK?

Kimki o'zini virusdan himoya qilishni xohlasa, u emlanishi kerak.



## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Matnning ajratib ko'rsatilgan qismi «chalg'itish» nuqtayi nazaridan baholanadi, bunda potensial qarama-qarshiliklar mavjud («**Kimlar emlanishi kerak? Hamma...**» «Kimni emlash mumkin emas?» degan fikrga qarama-qarshi). Qarama-qarshilik aynan nimada ekanligi berilishi yoki umuman berilmasligi ham mumkin. Rozilik yoki norozilik aniq yo noaniq ko'rsatilishi mumkin.

Masalan:

- *Ha, ba'zi odamlar uchun emlanish xavfli (masalan, homilador ayollar uchun, qarama-qarshiliklar ta'riflangan).*
- *Yo'q, chunki siz ba'zi odamlarning nima sababdan emlanishi mumkin emasligini tushunishingiz uchun keyingi qator so'zlarini o'qib chiqishingiz kerak, umuman, u barcha odamlarning emlanishini xohlaydi.*
- *Ha, u boshida «hamma xohlovchilar» degan fikrni aytadi, ammo keyin kimlarga mumkin emasligini sanab o'tyapti (Qarama-qarshilik aniqlangan).*
- *Bu qatorda hamma emlanishi mumkinligi yozilgan, bu esa noto'g'ri (Qarama-qarshilik qisqacha aniqlangan).*

Yoki matnning ajratib ko'rsatilgan qismi «chalg'itish» degan fikr nuqtayi nazaridan baholanadi. Bunda ko'rib chiqilayotgan fikr mubolag'a bo'lishi mumkinligi ko'rsatiladi (ya'ni «Emlashga muhtoj emas yoki emlash uni to'liq himoya qila olmaydi»). Mubolag'a nimada ekanligi ko'rsatilmasligi mumkin. Rozilik yoki norozi bo'lish, aniq yo noaniq bo'lishi mumkin.

- *Olib tashlash kerak, chunki emlanish gripp bo'lmasligingizga kafolat bera olmaydi.*
- *Emlanish to'liq himoyani kafolatlamaydi.*
- *Olib tashlash kerak, chunki kim sog'лом va tetik bo'lsa, u gripp bilan kasallanavermaydi.*
- *Ha, men roziman, chunki bu narsa emlash amaliyotini yaxshiroq ko'rsatishga yordam beradi (Aynan nimada ekanligi aytilmagan bo'lsa-da, mubolag'aga ishora qilingan).*

**Javob qisman qabul qilinadi:** Matnning ajratilgan qismi baholanadi, ammo «chalg'itish» nuqtayi nazaridan emas:

- 1) *Ilgari surilayotgan fikr kuchli, samarali va ishonarli, ammo unda bo'lgan qarama-qarshiliklar yoki chalg'itish mumkinligi haqida tilga olinmagan.*



2) «Kimki o‘zini virusdan himoya qilishni xohlasa» degan fikr ortiqcha, chunki u yaqqollikni tasdiqlayapti.

3) Uni qoldirish kerak, chunki u odamlarni ishontirishga yordam beradi.

4) Uni qoldirish kerak, chunki u odamlarga murojaat qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

5) Bu narsani olib tashlash kerak deb o‘ylayman, chunki unda barcha virusdan himoyalanishni xohlashi haqida gap bormaydi, hatto bu narsa emlash yordamida amalga oshirilmasa ham.

**Javob qabul qilinmaydi:** Javob tushunarsiz yoki nomunosib, «chalg‘itayotganligi» haqida tushuntirishlar yo‘q bo‘lsa.

Masalan:

- *U yaxshi, qoldirish kerak (tushuntirilmagan).*
- *Ular matnning nomi o‘rniga birorta rasm qo‘yishsa, yaxshi bo‘lar edi (tushuntirilmagan).*
- *Ha, bu gap chalg‘itadi va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (tushuntirilmagan).*

**Yoki** materialni aniq tushunmagan, haqiqatdan uzoq bo‘lgan noo‘rin javob berilsa:

- *Uni olib tashlash kerak, chunki hammani o‘zi uchun qaror qilishga haqibor. (Matnni noto‘g‘ri tushunish).*
- *Ha, odamlar qiziqib qolishlari ehtimoldan xoli emas, ammo ular ninani ko‘rib qo‘rqib ketishlari mumkin (noo‘rin).*

## 5-savol

Ma‘lumotlar varaqasidan foydalanib, «Akol» tashkilotining qaysi xodimlari Irina Nikolayevnaga murojaat etishlari kerakligini aytинг.

A. Magazinda ishlaydigan Stanislav emlanishni xohlamaydi, chunki u o‘zining tabiiy immunitetiga ishonadi.

B. Sotuvchi Dasha emlash hamma uchun majburiy yoki ixtiyoriy ekanligini bilishga qiziqadi.

C. Pochta bo‘limida ishlaydigan Elvira emlanishni juda xohlaydi, ammo ikki oydan keyin farzandli bo‘lishi kerak.

D. Hisobchi bo‘lib ishlaydigan Mixail juda ham emlanishni xohlaydi, ammo u 17-noyabrdan boshlab mehnat ta’tiliga chiqadi.

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:**

*D. Hisobchi bo‘lib ishlaydigan Mixail emlanishni juda ham xohlaydi, ammo u 17-noyabrdan boshlab mehnat ta’tiliga chiqadi.*


**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



## ISHCHI KUCHI

Diagrammada ayrim mamlakatlar aholisining ishga yaroqliligi tarkibi aks ettirilgan. 1995-yil ushbu mamlakatning jami aholisining soni taxminan 3,4 millionga teng bo'lgan.

### **1995-yil 31-mart oxiriga ko'ra ishchi kuchining (minglik sonlarda) tarkibi:**



#### **Eslatma:**

1. Aholining turli guruhlari minglik son hisobida olingan.
2. Ishga layoqatli aholi 15 yoshdan 65 yoshgacha hisoblanadi.
3. Ishchi kuchiga kirmaydigan aholi tarkibiga faol ravishda ish qidirmaydiganlar va ishga layoqatsizlar kiradi.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### ISHCHI KUCHI

Savollarga javob berishda yuqorida berilgan ishchi kuchi haqidagi ma'lumotlardan foydalaning.

#### 1-savol

Ishga layoqatli aholi qanday ikki asosiy guruhga ajraladi?

A. Ishlovchilar va ishsizlar.

B. Ishga layoqatli hamda ishga layoqatsiz yoshdagilar.

C. To'liq band bo'lgan insonlar, qisman band bo'lgan insonlar.

D. Ishchi kuchi tarkibiga kiruvchilar va ishchi kuchi tarkibiga kirmaydiganlar.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'lmagan.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

D. Ishchi kuchi tarkibiga kiruvchilar va ishchi kuchi tarkibiga kirmaydiganlar.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Ishga layoqatli aholining qancha qismi ishchi kuchi tarkibiga kirmaydi? (Foizni ko'rsatmagan holda **sonini** yozing).



#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumot qidirish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'lmagan.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** 949 900 raqami ko'rsatiladi. Diagrammada ko'rsatilgan raqamlar umumlashtirilgani va eslatmadagi aholining turli guruhlari minglik son hisobida olinganligi haqidagi ma'lumotlar yaqqol ko'rinish turadi. So'zlar va raqamlar ko'rinishida berilgan 949 000 dan 950 000 gacha bo'lgan raqamlar qabul qilinadi. Shuningdek, 900 000 va

bir million (so‘zlar yoki raqamlar bilan yozilgan)lar ham qabul qilinadi.  
Masalan:

- 949 900
- To‘qqiz yuz ellik mingdan sal kamroq
- 950000
- 949 ming
- Deyarli million
- 900 minglar atrofida
- $949 \times 1000$
- 940 (000)

**Javob qisman qabul qilinadi:** Diagrammada ko‘rsatilgan son to‘g‘ri aniqlanganligi yaqqol ko‘rinib turibdi, ammo sonlar mingliklarda ko‘rsa-tilganligi haqidagi mulohazalar noto‘g‘ri hisobga olinsa, masalan:

- 949,9
- 94.900
- deyarli ming
- 950 dan sal kamroq
- 900 atrofida
- 1000 dan sal kamroq

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

Masalan:

- 35,8%
- 7,5%

### 3-savol

Diagrammada aks ettirilgan aholining qaysi guruhi jadvalning chap qismiga mansub? Mansublarni berilgan jadvaldagi katakchalarini o‘chirish orqali belgilang.

	Ishchi kuchi tarkibiga kiradiganlar: ishlaydigانلار	Ishchi kuchi tarkibiga kiradiganlar: ishlaydigانلار	Ishchi kuchi tarkibiga kirmay-diganlar	Hech bir tarkibga kiritib bo'lmay-diganlar
Ofitsiant, 35 yosh, to'liqsiz ish kunida ishlaydi.	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Tadbirkor ayol, 43 yosh, haftasiga 60 soat ishlaydi.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Kunduzgi bo'lim talabasi, 21 yosh.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
28 yoshli erkak, yaqinda o'z do'konini sotdi, ish qidiryapti.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
55 yoshli ayol, hech qayerda ishlamagan, uydan tashqarida ishlashni xohlamaydi.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
80 yoshli qari ayol, bir kunda bir necha soat oilaviy savdo shaxobchasida ishlaydi.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumot qidirish.

*Matn formati:* Yaxlit bo'lmagan.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi (3 ball):** 5 ta to'g'ri javob belgilansa.

**Javob qisman qabul qilinadi:**

2 ball – 4 ta to'g'ri javob belgilansa.

1 ball – 3 ta to'g'ri javob belgilansa.

	Ishchi kuchi tarkibiga kiradiganlar: ishlaydigانلار	Ishchi kuchi tarkibiga kiradiganlar: ishlaymaydigانلار	Ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigانلار	Hech bir tarkibga kiritib bo'lmaydigانلار
Ofitsiant, 35 yosh, to'liqsiz ish kunida ishlaydi.	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Tadbirkor ayol, 43 yosh, haftasiga 60 soat ishlaydi.	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
Kunduzgi bo'lim talabasi, 21 yosh.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
28 yoshli erkak, yaqinda o'z do'konini sotdi, ish qidiryapti.	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
55 yoshli ayol, hech qayerda ishlamagan, uydan tashqarida ishlashni xohlamaydi.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
80 yoshli qari ayol, bir kunda bir necha soat oilaviy savdo shaxobchasida ishlaydi.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>

**Javob qabul qilinmaydi:** 2 ta yoki undan kam javob belgilansa.

#### 4-savol

Aytaylik, ishga layoqatli aholi haqidagi ma'lumot yuqorida (dastlab) berilgan diagramma kabi har yili berilsa, quyidagi diagrammada berilgan to'rt ko'rinishdagi ma'lumotdan qaysi biri yil sayin o'zgarishi mumkin? «O'zgaradi» yoki «O'zgarmaydi» so'zlaridan birini aylana shaklida belgilang.

Diagrammada berilgan ma'lumot	Javob
Diagrammada ko'rsatilgan aholi guruhining nomi (masalan, «Ishchi kuchi tarkibiga kiruvchilar»)	O'zgaradi // O'zgarmaydi
Foiz (masalan 64,2%)	O'zgaradi // O'zgarmaydi
Aholining turli qatlamlari hisobi (masalan 2656,5 )	O'zgaradi // O'zgarmaydi
Diagramma tagida berilgan eslatma	O'zgaradi // O'zgarmaydi

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit bo'limgan.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob qabul qilinadi:** 3 ta to'g'ri javob belgilansa.

**Javob qabul qilinmaydi:** 2 ta yoki undan kam javob belgilansa.

## 5- savol

Ishchi kuchi tarkibi diagramma ko'rinishida berilgan, lekin bu ma'lumotlarni boshqa ko'rinishlarda ham berish mumkin, masalan, grafik, jadval yoki diagrammaning boshqa shaklida, masalan, aylana shaklida.

Yuqorida berilgan dastlabki diagramma nimalarni ko'rsatish uchun qulayroq bo'lganligi sababli tanlangan?

- A. Vaqtlar o'zgarishini ko'rsatish uchun.
- B. Mamlakatdagi barcha aholi hisobini ko'rsatish uchun.
- C. Har bir ajratilgan guruh tarkibiga kiruvchi aholi qatlamini ko'rsatish uchun.
- D. Har bir aholi guruhi hisobini ko'rsatish uchun.

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit bo'limgan.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob qabul qilinadi:**

C. Har bir belgilangan guruh tarkibiga kiruvchi aholi qatlamini ko'rsatish uchun.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



Quyida internet orqali ikkita xat kelgan va ularning ikkalasi ham «graffiti» haqida. Graffiti – rasmiy ruxsatsiz amalga oshirilgan, devorlardagi yoki boshqa joylardagi yozuvlar va rasmlardir. Quyida berilgan savollarga javob berish uchun ushbu xatlardan foydalaning.



Men maktab devorlari to‘rtinchi marta tozalanib, graffitilarni yo‘q qilish uchun bo‘yalayotganidan g‘azabdaman. Ijodkorlik juda yaxshi, lekin nima uchun jamiyatga ortiqcha zarar yetkazmasdan, o‘z-o‘zini ifoda qilishning boshqa usullarini izlash mumkin emas?

Nima uchun yosh avlodning obro‘siga putur yetkazib, taqiqlangan joylarga rasm chizish kerak? Axir, mahoratli rassomlar o‘z asarlarini ko‘chalarda osib qo‘yishmaydi-ku, shunday emasmi? Buning o‘rniga ular mablag‘ topib, rasmiy ko‘rgazmalarda ishtirok etishyapti va shuhrat qozonishyapti.

Menimcha, xiyobonlardagi o‘rindiqlar, to‘siqlar, binolar – bularning barchasi o‘zi san‘at asarlari. Bu arxitekturaga naqshlar bilan zarar yetkazish juda achinarli emasmi?! Hattoki, bundan foydalanilayotgan usul ozon qatlamini yo‘q qilishi haqida aytmasak ham bo‘laveradi. Men shu kabi «san‘at asarlari» xalq ko‘zidan olib tashlanganda bu «soxta rassomlar» nima uchun g‘azablanishayotganini hech ham tushunolmayman.



**Hulkar**

Odamlar turli xil didga egadirlar. Jamiyat axborot va reklamalar bilan to'lib-toshgan. Savdo kompaniyalari belgilari, do'kon nomlari, ko'chalarining har ikki tarafida joylashgan jonga teguvchi katta plakatlar. Bularning barchasi kerakmi? Asosan kerak. Graffitilar kerakmi? Ba'zilar: «Ha», – deyishadi, ayrimlari esa – «Yo'q».

Ushbu graffitilar uchun kim haq to'laydi? Kim oxir-oqibat reklama uchun haq to'laydi? Albatta, iste'molchi.

Reklama taxtalarini qo'yadiganlar sizning ruxsatingizni so'rashadimi? Yo'q. Unda devorlarga chizadigan odamlar bu uchun ruxsat olishlari kerakmi? Bu shunchaki muloqot qilish imkoniyati emasmi? Xuddi sizning ismingiz yoki ko'chadagi katta san'at asarlari va musiqiy guruhlarning nomi kabi.

Bir necha yillar oldin do'konlarda paydo bo'lgan katakchali va yo'l-yo'l liboslarni hamda chang'ichilar kostumlarini eslang. Modellari va ranglari bo'yalgan beton devorlardan ko'chirilgan edi. Bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan qabul qilinayotgan bu modellar ham, bu ranglar ham barchani zavqlantiradi. Ammo o'sha uslubdagi graffiti esa juda ko'rimsiz hisoblanadi.

Ha, san'at uchun qiyin davrlar keldi.

**Sora**



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### GRAFFITI

#### 1-savol

Har bir xatning maqsadi nimadan iborat edi?

- A. Graffiti nima ekanligini tushuntirib berish.
- B. Graffiti haqida o‘z fikrlarini ifoda etish.
- C. Graffitining mashhurligini namoyish etish.
- D. Bu rasmlarni yuvish uchun juda ko‘p pul sarflanishini odamlarga aytib berish.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

#### Javob to‘liq qabul qilinadi:

- B. Graffiti haqida o‘z fikrlarini ifoda etish.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Nima uchun Sora reklamaga asoslanyapti?



---

---

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda graffiti va reklama o‘rtasida taqqoslash amalga oshirilganligi haqida aytildi. Javob reklama graffitining qonuniy shakli ekanligi haqidagi fikr bilan bog‘liq bo‘ladi. Reklama graffiti kabi salbiy ta’sir etishi mumkinligini bizga ko‘rsatishi ifodalanadi. Chunki ayrim odamlar reklamani ham xuddi bo‘yoqli balloonchada chizilgan rasmlar kabi juda xunuk narsa deb o‘ylashadi.

- *Uning aytishicha, reklama graffitining qonuniy shakli.*
- *U reklamani graffiti kabi deb o‘ylaydi.*
- *Chunki reklama shitlari graffitiga o‘xshaydi. (Minimal darajada qabul*

*qilinadigan javob. O'xshashlik ta'kidlanyapti, ammo u nimada ekanligi aytilmagan).*

- Chunki bu ko'rgazmaning boshqacha usuli.
- Chunki u ham devorlardan joy oladi.
- Chunki ularga qarash ham yoqimli, ham yoqimsiz.
- U reklamaga murojaat etadi, chunki odamlar reklamani garffitiga qaraganda yaxshiroq qabul qiladilar (Graffiti va reklama o'rta sidagi o'xshashlikni ularning har bittasi bilan qarama-qarshilik munosabatlari orqali osongina bilib olish mumkin).

**Javob qabul qilinmaydi:** Noto'g'ri yoki noaniq javob berilgan bo'lsa, masalan:

- Bu uning nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ifodalashning bir usuli.
- Chunki namuna sifatida uni eslatib o'tishni xohlaydi.
- Bu usul.

*Yoki materialni aniq tushunmagan, yoki haqiqatdan yiroq bo'lgan noo'rin javob berilsa:*

- U graffitini tasvirlaydi.
- Chunki odamlar graffitidagi tasvirlarga o'xshagan liboslarni kiyishni yaxshi ko'radilar.
- Graffiti – bu reklamaning bir turi.
- Chunki graffiti – bu alohida odamning yoki bir guruh odamlarning reklamasi (Taqqoslash noto'g'ri qilingan, graffiti reklama bilan solishtirilyapti).

### **3-savol**

Quyidagi xatlarning qaysi biri, sizning fikringizcha, to'g'ri? O'z so'zlarining bilan fikringizni bayon eting. Bunda bitta xatda yoki ikkala xatda aytilgan fikrlardan foydalaning.



### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Fikrlarni tushuntirishda bitta yoki ikkala xatga murojaat etiladi. Muallifning umumiyoq pozitsiyasi, asoslarning detallari haqida gapiriladi. Muallif fikrlarining talqini haqiqatga yaqin bo'lishi kerak. Tushuntirish matnning bir qismini so'zlab berish shaklida bo'lishi mumkin, biroq to'liq ko'chirishdan iborat bo'lmasligi kerak.

Masalan:

- Men Hulkarning fikriga to‘liq qo‘silaman. Graffiti noqonuniy, shuning uchun u vandalizm akti sifatida qabul qilinadi.
- Sora. Mening fikrimcha, graffitini chizayotgan rassomlarga jarima solish, keyin millionlarni qo‘lga kiritish maqsadida ularning rasmlaridan foydalanish – bu ikkiyuzlamachilik.
- Men ikkalasining fikriga ham qo‘silaman. Odamlarga rasmlarni jamoat joylarida chizib tashlayverish noqonuniy ekanligini tushuntirish kerak, ammo shu bilan birga ularga rasmlarini chizishga imkon beruvchi joylar ajratish kerak.
- Sora. Chunki u san’at haqida qayg‘uryapti.
- Men ikkalasi bilan ham hamfikrman. Graffiti – bu juda yomon, ammo reklama ham xuddi u kabi yomon va men ikkiyuzlamachilik qilishni xohla-mayman.
- Hulkar. Chunki men ham u kabi graffitini yomon ko‘raman. Ammo men Soraning ham fikrini tushunaman. U odamlarni o‘zlariga yoqqan ishlarni qilganliklari uchun ayblamoqchi emas.
- Hulkar. Chunki haqiqatan ham keraksiz narsalar uchun yosh avlodning obro‘siga putur yetkazish yaxshi emas. (Javob chegaralangan: aynan boshqa matnga kiritilgan so‘zlar keltirilgan).

**Javob qabul qilinmaydi:** Matndan to‘g‘ridan to‘g‘ri keltirilgan sitata yordamida o‘z fikri ifodalangan bo‘lsa. (Qo‘shtirnoq bilan ajratilgan yoki ajratilmagan).

Masalan:

- Hulkar. Odamlar jamiyatga ortiqcha sarf-xarajat keltirmaydigan o‘zlarini namoyon qilish usullarini topishlari kerak, degan fikrga qo‘silaman.
- Hulkar. Nima uchun yosh avlodning obro‘siga putur yetkazish kerak?

**Yoki** noto‘g‘ri va noaniq javob berilsa, masalan:

- Ikkisi ham, chunki men Hulkar qanday tushunchalardan kelib chiqayotganini bilaman, ammo Sora ham haq (Fikrlar isbotlanmagan).
- Men ko‘proq Hulkar taraf doriman. Sora o‘z fikrlariga o‘zi ham ishonmayotgandek tuyuldi.
- Hulkar. Chunki u ayrim odamlar juda iqtidorli deb o‘ylaydi. (Hulkarning dalillari noto‘g‘ri talqin etilgan).

#### 4-savol

Har bir xatni tahlil qila turib, biz xatda nimalar haqida gap borayotganini muhokama qilishimiz mumkin (ya’ni uning mazmunini).

Shuningdek, biz xatni qanday yozilganini ham muhokama qilishimiz mumkin (ya’ni uning uslubini).

Kimning xatiga qanday munosabatda bo‘lishingizdan qat’i nazar, bu ikki muallifdan qaysi biri, sizningcha, xatni yaxshi yozgan. Xatlar qanday yozilganligiga tayangan holda o‘z javobingizni asoslab bering.



---

---

---

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Fikrlarni tushuntirish jarayonida xatlarning birini yoki ikkalasini ham yozilish uslubi yoki shakli eslatib o‘tiladi. Shu bilan birgalikda, yozma uslub, dalillarning qurilishi, dalillarning ishonchli ekanligi, ishlatilgan yozuvlar, odamlarni ishontirish usullari kabi quyidagi o‘ziga xosliklar hisobga olinadi. «Yaxshi dalil keltirgan» degan fikrlar asoslangan bo‘lishi kerak («Qiziqarli», «o‘qishga oson», «tushunarli» degan fikrlar hisobga olinmaydi).

Masalan:

– *Hulkar. U ko‘pgina dalillarni keltirgan va ularni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, u graffitining atrof-muhitga ta’siri haqida ham eslatib o’tgan, menimcha, bu juda muhim.*

– *Hulkar to‘g‘ridan to‘g‘ri graffiti chizuvchilarga murojaat etganligi uchun uning xati samaraliroq.*

– *Mening fikrimcha, Hulkarning xati – eng yaxshisi. Sora masalaga biroz bir taraflama yondashgan.*

– *Mening fikrimcha, Sora juda kuchli dalillarni keltirgan, ammo Hulkarning xati yaxshiroq tuzilgan.*

– *Menga Hulkarninig xati yoqdi. Chunki u o‘z fikrini shijoat bilan ifodalandaydi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javobda mulohazalar faqatgina muallifning pozitsiyasiga nisbatan rozilik yoki norozilikni bildiradi, uning mazmunini sal o‘zgartirib izohlaydi.

Masalan:

– *Hulkar. Men u aytgan barcha fikrlarga qo‘shilaman.*

– *Hulkarning xati yaxshiroq. U aytganidek graffiti zarar keltiradi va vaqtini yo‘qotish hisoblanadi.*

– *Soraning xati. U aytgan hamma gaplar muhim.*

**Yoki** fikrlar kerakli dalillar bilan isbotlanmasa:

– *Soraning xati – eng yaxshisi.*

– *Hulkarning dalillari yaxshiroq.*



## POLITSIYANING ILMIY QUROLI

**Qotillik sodir bo‘lgan, ammo gumondor jabrlanuvchini tanimasligini ta’kidlamoqda. U jabrlanuvchini hech qachon tanimaganligini, hech qachon u bilan uchrashmaganini, hech qachon unga hatto barmog‘ini tegizmaganini aytmoqda. Politsiya va sudya u yolg‘on gapirayotganiga ishonadilar, ammo bu narsani qanday qilib isbotlash mumkin?**

va gumondorning qon hujayralarini sinchiklab tekshirib chiqdilar. Tanamizning har bir hujayrasi yadrosida DNK mavjud. Bu nima? DNK tizilgan ikkita bir-biriga o‘rilgan marvarid marjonlarga o‘xshaydi.

Tasavvur qilaylik, marjonlar to‘rt xil rang va minglab rangli marvarid donachalaridan iborat (bular genlardir). Ular alohida tartibda tizilgan. Mana shu tartib har bir inson tanasining barcha hujayralarida bir xil ko‘rinishda saqlanib qoladi, jumladan, sochlarning ildizlarida, oyoqning bosh barmog‘ida, jiigarda, oshqozon va qonda. Turli odamlarda marvaridlarning joylashishi turlicha. Marvaridlarning sonini hisobga olgan holda, har xil odamlardagi marvaridlarning joylashishi bir xil bo‘lib qolish ehtimoli juda past. Bunday holat faqatgina egizaklarda bo‘lishi mumkin.

Shu tarzda DNK insonning genetik guvohnomasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, genetiklar gumondor shaxsning genetik guvohnomasini (uning qonidan olinadi) malla sochlardan olingan DNK namunasi bilan solishtiradi. Agar ular bir xil bo‘lib chiqsa, demak, gumondorning jabrlanuvchi bilan uchrashganligi isbotlanadi.

Jinoyat sodir etilgan joydan tergovchilar voqeaga guvoh deb hisoblash mumkin bo‘lgan soch tolalari, iplar va sigareta qoldiqlarini topdilar.

Marhumning pidjagidan topilgan bir necha soch tolalari mallarang edi.

Ular gumondorning sochlari o‘xshar edi. Agar bu sochlarning unga tegishli ekanligini isbotlash mumkin bo‘lganda edi, bu narsa uning haqiqatan jabrlanuvchi bilan uchrashganligiga guvohlik berardi.

### Har bir inson noyobdir

Mutaxassislar ish boshladilar. Ular soch ildizlaridan olingan hujayralarni

## Dalilning faqatgina kichik bir qismi

Zo'rlash, qotillik, o'g'rilik bilan bog'liq jinoyatlar yuz berganda politsiya tez-tez genetik tahlilga murojaat qiladi.

Nima uchun? Ikki odamning, ikkita predmetning yoki predmet bilan insonning bir-biri bilan aloqada bo'lganligini isbotlash uchun. Ko'p hollarda bu narsa ishni oldinga yurishiga sababchi bo'ladi, ammo har doim ham jinoyatni ochishga xizmat qilmaydi.

Bu faqatgina ko'plab dalillarning kichik bir qismi, xolos.

Anna Versal

### Biz milliardlab hujayralardan tuzilganmiz

*Yer yuzidagi barcha tirik  
jonzotlar son-sanoqsiz  
hujayralardan tashkil topgan.  
Har bir hujayra nihoyatda  
kichkina. U bir necha marta  
kattalashtiradigan mikroskopda  
ko'radigan darajada juda  
kichkina. Har bir hujayrada  
membrana va yadro bor.  
Ularning ichida DNK joylashgan.*

### Genetik guvohnomami?

*DNK har biri minglab  
«marvarid»lardan tuzilgan  
genlar to'plamidan iborat bo'lib,  
ularning hammasi birgalikda  
yig'ilganda shaxsning genetik  
tegishliligini tashkil etadi.*

### Shaxsning genetik tegishliliqi qanday aniqlanadi?

*Genetik marhumning sochlari ildizidan yoki sigaretaning qoldig'idagi  
so'laklardan bir necha tirik hujayralarni oladi. Ularni DNK ning atrofidagi  
barcha narsalarni yemirib tashlaydigan moddaga soladi. Bu jarayon  
gumondorning qonidan olingan hujayralar bilan ham o'tkaziladi.  
DNK tahlil uchun maxsus tayyorlanadi. Shundan so'ng DNK maxsus  
modda – gelga solinadi va gel orqali elektr toki o'tkaziladi. Bir necha  
soat o'tgandan so'ng chiziqchalar paydo bo'ladi (do'konlarda sotib  
olandigan mahsulotlarimizdagi shtrix kodlarga o'xshagan). Bu kod maxsus  
yorug'likda ko'rindi. Gumondorning DNK shtrix-kodi sochdan olingan  
shtrix-kod bilan solishtiriladi.*



## **MATN YUZASIDAN SAVOLLAR**

---

### **POLITSIYANING ILMIY QUROLI**

**Savollarga javob berish uchun yuqorida keltirilgan jurnal maqolalasidan foydalaning.**

#### **1-savol**

DNK tuzilishini tushuntirish uchun muallif marvaridli marjon tuzilishidan foydalanadi. Ana shu marjonlar turli odamlarda qanday o'zgaradi?

- A. Ular uzunligi bo'yicha o'zgaradi.
- B. Marvaridlar tartibi farqlanadi.
- C. Munchoqlar soni har xil.
- D. Marvaridlarning rangi har xil.

#### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Axborotni aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

#### **Javob to'liq qabul qilinadi:**

B. Marvaridlar tartibi farqlanadi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### **2-savol**

«Shaxsning genetik tegishliligi qanday aniqlanadi?» deb nomlangan matnning maqsadi nima?

- A. D NK nimaligini tushuntiradi.
- B. Shtrix-kod nimaligini tushuntiradi.
- C. D NK namunalarini olish uchun hujayra tahlili qanday o'tkazilishini tushuntiradi.
- D. G umondorning aybini qanday qilib isbotlash mumkinligini tushuntiradi.

#### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** C. D NK namunalarini olish uchun hujayra tahlili qanday o'tkazilishini tushuntiradi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### **3-savol**

**Muallifning asosiy maqsadi nimadan iborat?**

- A. Ogohlantirish.
- B. Ko'ngil ochish.
- C. Ma'lumot berish.
- D. Ishontirish.

### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

- C. Ma'lumot berish.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### **4-savol**

Birinchi kichik matn so'ngida «Ammo qanday isbotlash kerak?» – deyilgan.

Shu savolga hikoyadagi tergovchilar quyidagi qaysi vositalar yordamida javob topishga harakat qiladilar?

- A. Guvohlarni so'roq qilish orqali.
- B. Genetik tahlillar orqali.
- C. Gumondorni so'roq qilish orqali.
- D. Tergov natijalarini ikkinchi marotaba ko'rib chiqish orqali.

### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**


- B. Genetik tahlillar orqali.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



## YUGURUVCHILAR

### SIZGA YAXSHI KAYFIYAT TILAB



14 yil davomida Lion shahridagi sport tibbiyoti markazi (Fransiya) yosh sportchilarning jarohatlanish muammolarini o'rganib chiqdi. Tadqiqotlar natijasida jarohat olmaslikning eng yaxshi yo'li – bu uning oldini olish va yaxshi poyabzal tanlash kerakligi aniqlandi.

#### Zarbalar, yiqilishlar, eskirish va yirtilishlar...

8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan sportchilarning 18 foizining tovonida jarohati bor. Futbolchining to'pig'idagi tog'ay zARBALARGA ta'sirlanmay qoladi va 25 foiz professionallar bu ularning eng nozik joyi ekanligini bilishadi. Mo'rt tizza bo'g'imidagi tog'ay ham shu kabi kuchli shikastlanishi mumkin va ertaroq (bola 10-12 yoshdaligida) hech qanday chora ko'rilmasa, bu barvaqt suyak artriti boshlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Son suyagi ham turli shikastlanishlardan qutulib qola olmaydi, ayniqsa, o'yinchi charchagan paytlarida yiqilib yoki to'qnashib ketishi oqibatida suyagini sindirib olish xavfi bor.

Bundan tashqari, shu tadqiqot natijalariga ko'ra, 10 yildan ko'p o'ynagan futbolchilarning oyoqlarida yoki tovonlarida turli o'smalar paydo bo'lishi

mumkin. Bu o'smalar «futbolchining oyog'i» deb nom olgan, ya'ni oyoq muntazam sport oyoq kiyimida harakatlanishi tufayli paydo bo'lgan deformatsiya.

### **Himoya, tayanch, chidamlilik va amortizatsiya**

Agar sport oyoq kiyimi juda qattiq tuyulsa, u sizning harakatingizni chegaralaydi. Agar u juda harakatga mos, yumshoq bo'lsa, unda sizning jarohat olishingiz xavfi ortadi. Yaxshi sport oyoq kiyimi 4 ta mezonga mos bo'lishi kerak:

Birinchidan, u oyoqni tashqi omillardan himoyalash uchun imkon berishi kerak: to'pning zarbasidan va boshqa o'yinchining zarbasidan himoya qilishi, sport maydonining notekis joylarini yashirishi va oyoqni sovuq va yomg'irli kunlarda issiq va quruq saqlashi shart.

Bu oyoq kiyimlar oyoq kaftini, ayniqsa, to'piq suyaklarini turli xil cho'zilishlar, sinishlardan, tizza suyagini shikastlanishiga olib keluvchi boshqa jarohatlardan himoya qilishi kerak. Shuningdek, ular o'yinchiga barqarorlik hissini berishi lozim. U ho'l maydonchada toyib ketmasligi va juda quruq yuzada birdan yiqilib tushmasligi kerak.

Va nihoyat, u basketbolchi va voleybolchilarda bo'ladigan sakrash holatlaridagi kabi amortizatsiya holatini keltirib chiqara olishi kerak.

### **Quruq oyoqlar**

Qavariqlar, darz ketishi yoki oyoq zamburug'i kasalliklarining oldini olish uchun sport oyoq kiyimi terlarni parlanib ketishiga to'sqinlik qilmasligi, ammo namlikni ichkariga kirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Buning uchun eng maqbولي suv o'tkazmaydigan teridan qilingan oyoq kiyimi. U yomg'ir suvlaridan ham himoya qiladi.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### YUGURUVCHILAR

Maqoladan foydalanib quyidagi savollarga javob bering.

#### 1-savol.

Muallif ushbu matn orqali nimani ko'rsatmoqchi edi?

- A. Ko'p turdag'i sport poyabzallarining sifati juda yaxshilanganligini.
- B. Agar siz 12 yoshdan kichik bo'lsangiz, futbol o'ynash kerak emasligini.
- C. Ko'pgina yoshlari o'zlarining jismoniy holati yomonligi tufayli turli jarohatlardan azob chekishayotganligini.
- D. Yosh sportchilarga yaxshi sport oyoq kiyimi kiyish juda muhimligini.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

D. Yosh sportchilarga yaxshi sport oyoq kiyimi kiyish juda muhimligini.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol.

Nima uchun, maqolaga ko'ra, sport oyoq kiyimi juda qattiq bo'lmasligi kerak?



#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumotni aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta'limiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Javobda harakatni cheklash haqida gapiriladi.

Masalan:

- *Qattiq oyoq kiyim harakatni cheklaydi.*
- *Qattiq oyoq kiyim tez (oson) yugurishga xalaqit qiladi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Maqola mazmuni noto‘g‘ri tushunilsa yoki noaniq, noo‘rin javob berilsa, masalan:

- Jarohatlar olmaslik uchun.
  - U oyoq kaftini yaxshi ushlagaydi.
  - Chunki siz oyoq kaftini va to‘piqni to‘g‘ri ushlagingiz kerak.
- Yoki** noaniq va yetarli bo‘lmagan javob berilgan bo‘lsa:
- Agar u juda qattiq bo‘lsa, u sizga mos kelmaydi.

### 3-savol.

Maqolada shunday deyilgan: «Yaxshi sport oyoq kiyimi to‘rtta mezonga javob berishi kerak».

Bu to‘rtta mezon nimalar?



---

---

### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma’lumotni aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta’limiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda matndagi kursiv bilan ajratilgan to‘rtta mezon keltiriladi. Shuningdek, matndan to‘g‘ridan to‘g‘ri sitatalar, ko‘chirib yozish, qayta gapirib berish yoki qayta ishlangan matn bo‘lishi, mezonlar har qanday tartibda berilishi mumkin. Quyida to‘rtta mezon keltirilgan:

1. *Tashqaridan himoya qilishga ko‘maklashish.*
2. *Oyoq kaftini ushlab turish.*
3. *Chidamlilikni ta’minalash.*
4. *Zarbalarni yumshatish.*

Oyoq kiyim tashqi himoyani yaxshi ta’minalashi, oyoq kaftini ushlab turishi, o‘yinchini barqarorlik bilan ta’minalashi va zarbalarni yumshatish berishi kerak.

1. *U toyib ketishdan va keskin yiqilishdan himoya qilishi kerak (barqarorlik).*
2. *U oyoq kaftini qattiq zorbaldan himoya qilishi kerak (zarbani kamaytirishi kerak).*
3. *Unotekis (past-balans) yerda, shuningdek, sovuqdan himoya qilishi kerak (tashqi himoya).*
4. *U oyoq kaftini va oyoq to‘pig‘ini yaxshi ushlab turishi kerak (oyoq kaftini ushlab turish).*

\* *Himoya, ushlab turish, barqarorlik, amortizatsiya*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

1. To‘p yoki oyoq zarbasidan himoya qiladi.
2. Yerning notekis yuzasiga moslashishga imkon beradi.
3. Oyoq kaftini issiq va quruq saqlaydi.
4. Oyoq kaftini yaxshi ushlaydi.

#### **4-savol.**

Maqolaning oxiridagi gapni yana bir bor o‘qib chiqing. U Ikki qismdan iborat:

«Arzimas, ammo og‘riqli (birinchi qism) darmonsizliklar, yoriqlar, qavariqlar yoki oyoq zamburug‘i kasalliklari (zamburug‘li infeksiyalar)...».

«... Sport oyoq kiyimi terlarni parlanib ketishiga (ikkinchi qismiga) to‘sqinlik qilmasligi kerak, ammo namlikni ichkariga kirishiga ham yo‘l qo‘ymasligi kerak...»

Ushbu jumlaning birinchi va ikkinchi qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?

Ikkinchi qism ...

- A. Birinchi qismga zid keladi.
- B. Birinchi qismni takrorlaydi.
- C. Birinchi qismda aytilgan muammoni tasvirlaydi.
- D. Birinchi qismda tasvirlangan muammoning yechimini beradi.

### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Fikrlash va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ta’limiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:**

D. Birinchi qismda tasvirlangan muammoning yechimini beradi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



U necha kunlardan beri sovuq bo'tana suv sekinlik bilan toshib qirg'oqlarni qoplab olishini kuzatib o'tirar edi. Bu botqoqzor joylarga janubdan kelib, endi uning uylari devorlariga urilib yog'ayotgan yomg'ir qachon boshlanganligini u yaxshi eslay olmasdi. Keyin suv asta-sekin ko'tarila boshladi, bir necha lahma to'xtab qoldi va daryo orqaga oqa boshladi. Bora-bora suv hamma ariqchalarni, zovurlarni to'ldirdi, pastlik joylarni suv bosdi. Kechasi uxlayotgan paytida suv yo'lni ham yuvib ketdi va uni tashqi dunyodan uzib qo'ydi. Oqim qayiqni ham oqizib ketdi, endi ayol daryo to'lqini bilan qirg'oqqa tashlangan xaroba uyida yolg'iz o'zi qoldi. Suv uyning saqichlangan poydevorigacha yetib keldi va yana kelishda davom etar edi.

U yomg'ir toshqinidan daryoning quyilish joyi dengizga aylanganligini, daryoning o'zi esa uning bag'rida yo'qolib ketganligini ko'rdi. Qachonlardir uning uyi mana shunday toshqinlarga chidamli qilib qurilgandi, ammo endi bu uy juda ham eskirgan edi. Hoynahoy, pastdag'i taxtalarning bir qismi chirigan bo'lsa kerak. Balki, uning uyini katta eman daraxtiga bog'lab turgan zanjir ham uzilib ketar va u xuddi qayig'iga o'xhab oqib ketar.

Hech kim yordamga kela olmasdi. U qancha baqirsa ham, foydasi yo'q, chunki uni hech kim eshitmaydi. Hamma joyda odamlar suvdan nimalarni qutqarish mumkin bo'lsa, qutqarishar; o'zлari ham qutulishga harakat qilishar edi. Uning oldidan kimningdir uyi shunday sekin oqib o'tdiki, nazarida xuddi dafn marosimida ishtirok etayotganday tuyuldi. Garchi yomon ko'rinsa ham, bu kimning uyi ekanligini bilgandek edi. Egalari xavfsiz joyga o'tib olishgan bo'lsa kerak. Kechroq yomg'ir va qorong'ilik kuchayganda, u daryoning tepe tomonida panteraning o'kirishini eshitib qoldi.

Endi uy xuddi sovuqdan dirdirab turgan tirik jonzotga o'xshar edi. U yotog'i yonidagi stol ustida turgan lampani yerga tushib ketishdan saqlab qoldi va uni oyoqlari bilan qisib oldi. Uy g'ichirlagan tovush chiqarib joyidan qo'zg'aldi va xuddi po'kak kabi suv yuzasida oqimga bo'ysunib suzib keta boshladi. U yotog'inining chekkasini ushlab oldi. U tarafdan bu tarafga chayqalib, uy zanjir imkon berguncha suzib, qirg'oqdan uzoqlashdi. Ketidan zarba keldi, sukunat cho'kdi, yog'ochlar xuddi ingragandek tovush

chiqardi. Endi uy har doim turadigan joyidan o'tib, sekin orqaga suza boshladi. Uning nafasi ichiga tushib ketdi, u anchagacha qimirlamasdan o'tirib qoldi, uy u yoqdan bu yoqqa borib kelayotganini sezib o'tirar edi. Yomg'ir qatlamidan o'tib, qorong'ilik cho'kdi, u o'tirgan joyida boshini qo'llariga qo'ygancha uxbab qoldi.

Kechasi kimningdir qichqirig'idan uyg'onib ketdi. Ovoz shunchalik o'kinchli ediki, u uyqusi o'chmasdan oyoqqa turdi. Qorong'ida yotog'iga urilib ketdi. Ovoz daryo tarafdan eshitilar edi. U qandaydir katta bir narsaning ayanchli ingrab yaqinlashib kelayotganini eshitardi. Bu narsa boshqa bir uy bo'lishi mumkin edi. Keyin nimadir uning uyiga urilib ketdi va uyning uzunligi bo'ylab sirg'alib o'tdi. Bu daraxt edi. Bu narsa uning oldidan suzib o'tib ketdi, endi faqatgina yomg'irning ovozi va daryoning shovqini eshitilar edi. O'ralib yotib olib, endi uxbab deganda yana boshqa tovush eshitildi. Tovush juda yaqindan, xuddi uning xonasidan eshitilayotgandek edi. U qorong'ulikka tikilib, karavotdag'i miltiqni paypaslab topdi. Uni tizzasining ustiga qo'ydi. So'ngra «Kim bu?» – deb qichiqirdi.

Bunga javoban yana qiyqirgan tovush eshitildi, ammo bu gal tovush pastroq, horg'inroq edi. Eshik oldida nimadir bo'lib, uning harakatlanayotganini eshitib turardi. Polning taxtasi g'ichirlardi va nimalardir tushayotganini sezdi. Keyin kimningdir xuddi ichkariga kirmoqchi bo'lganday devorni tirnayotgani qulog'iga chalindi. Endi u o'sha kim ekanligini bilar edi. Bu uyning yonidan oqib o'tgan daraxtdan sakrab o'tgan katta mushuk. Bu mushukni unga sovg'a sifatida oqim olib kelgan edi.

U beixtiyor qo'li bilan vahimadan bo'g'ilayotgan tomog'ini siladi. Miltiq uning tizzasida yotar edi. U hayotida hech qachon panterani ko'rmagan edi. Unga ular haqida gapirib berishgan va ularning g'amgin o'kiriklarini uzoqlardan eshitgan edi. Mushuk yana devorni tirnar va eshikning yonidagi derazani taqillatar edi. Hozircha u derazadan mushukni kirkizmay, uni devor ortida ushlab tura olsa, u bexavotir bo'ladi. Tashqaridagi mushuk zanglagan to'rni tirnamay qo'ydi. U har zamonda irillar va g'ingshir edi.

Va, nihoyat, yomg'irlar orasidan yorug'lik tushganda, u hamon yotog'ida sovqotib o'tirar edi. Uning eshkak eshishga o'rganib qolgan qo'llari miltiqni mahkam changallaganidan qaqshar edi. U mushuk uyg'onib qolishidan qo'rqib, qimir etmas edi. U yotog'ida o'tirib, uy bilan birga tebranardi.

Yomg'ir esa hamon yog'ar, xuddi u hech qachon to'xtamaydigandek tuyulardi. Kulrang rutubatli tongda u, nihoyat, loyqalanib ketgan suvni va cho'kib ketgan daraxtlarning uchini ko'rdi. Mushuk qimirlamas edi.



Balki, jonivor ketib qolgandir? U miltiqni chekkaga olib qo‘ydi va yotoqdan sekin tushib, derazaning oldiga keldi. Mushuk hamon o‘sha yerda edi. U ostonaning chekkasida yotib, uy bog‘langan eman daraxtiga qarar, xuddi shu daraxtga sakramoqchidek edi. Endi pantera unga oldingiday qo‘rinchli ko‘rinmadi. Uning yungi yopishib qolgan, ochlikdan qorni ichiga kirib ketgan va osilib turar, yotgan joyida dumini likillatar edi. Hozir uni otib tashlash uchun qulay fursat. U sekin miltiqni olish uchun orqaga qarab yura boshladi. Shu payt pantera u tarafga qarab qoldi. Mushuk birdan sakrab oynani sindirdi. U orqaga yiqilib, baqirib yubordi. Shundan so‘ng miltiqni qo‘liga olib derazaga qarab otdi. Endi u mushukni ko‘ra olmasdi, ammo o‘q xato ketganini bilar edi. Mushuk qimirlay boshladi, u derazaning yonidan o‘tayotganida ayol uning boshini va orgasini ko‘rib turar edi.

U qaltirab kelib, yotog‘iga yotdi. Har tomondan kirayotgan sovuq havo, daryoning va yomg‘irning tinchlantiruvchi tovushi bir zum hamma narsani unutishga majbur qildi. U miltiqni tayyor holda ushlab, derazani kuzatar edi. U biroz kutib, keyin deraza oldiga bordi.

Pantera oddiy uy mushuklari kabi boshini old panjalariga qo‘yib, uqlab qolgan edi. U yomg‘ir boshlangandan beri birinchi marta o‘ziga, odamlarga, toshqindan zarar yetgan barcha narsalarga rahmi keldi va yig‘lagisi keldi. U yotoq chetiga sirg‘anib borib, ustiga qavilgan ko‘rpani tashladi. U fursat borida, hali suv qayig‘ini oqizib ketishga ulgurmasdan avval u yerdan chiqib ketishi kerak edi.

Uy bilan birga chayqala turib, u birdaniga oshqozonida kuchli og‘riq

sezdi. Bu holat unga anchadan beri ovqat yemaganligini eslatdi. U qancha vaqtdan buyon ovqat yemaganligini eslay olmadı. Xuddi pantera kabi u ham och edi. Oshxonaga o'tib, qolib ketgan to'rtta-beshta o'tinlardan olov yoqdi. Agar toshqin davom etaversa, u uydagi stulni, hattoki stolni ham yoqishiga to'g'ri keladi. U ilgakka ilinib turgan dudlangan go'shtni olib, yirik-yirik bo'laklarga kesdi va uni tovaga soldi.

Qovurilayotgan go'shtning hidi uning boshini aylantirdi. Unda hali yana oxirgi marta tayyorlangan ozroq eski pechenye ham bor edi, bundan tashqari, u o'ziga kofe ham tayyorlab olishi mumkin, chunki atrofda suv yetarli.

U ovqat tayyorlayotgan paytda pantera haqida deyarli unutib qo'ygandi. Ammo u birdaniga mungli uvulladi. Mushuk ham och edi. «Menga ovqat yeb olishimga imkon ber, – dedi ayol mushukka. – Keyin men sen uchun qayg'uraman». Va u kulib yubordi. U go'shtning qolgan qismini ilgakka osayotgan paytda pantera shunday qattiq uvullab yubordiki bundan uning qo'llari qaltirab ketdi.

U ovqatlanib bo'lgach, yotog'iga o'tirdi va miltiqni qo'liga oldi. Suv uyni shu qadar baland ko'targan ediki, daryo uni tebratganda endi u qoyaga tegmas edi. Ovqat unga biroz bo'lsa ham issiqlik baxsh etdi. Hozircha yorug' bo'lib turgan paytda mushukdan qutulib olishi mumkin edi. U sekin derazaning oldiga emaklab bordi. Jonivor hali ham o'sha yerda edi. U «miyovlab» yana eshik oldida yura boshladı. U hech qanday qo'rquvni his etmay, bir necha vaqt mushukni tomosha qilib turdi. Keyin esa nima qilayotganini anglamagan holda, miltiqni bir chekkaga qo'yib, yotoqni aylanib o'tib, oshxonaga yo'l oldi. Uning ortidan bezovta bo'lgan pantera qo'zg'aldi. U ilgakda ilinib turgan go'shtning qolganini oldi va derazaning siniq ko'zidan tashqariga otdi. Derazaning tashqi tarafidan irillagan tovush eshitildi va panteraning hayajoni endi ayolga o'tdi. U qilgan ishidan ta'sirlanib, karavotning oldiga qaytib keldi. Unga panteraning go'shtni yilib yeyayotgani eshitilib turardi. Uy chayqalishda davom etar edi.

U uyqudan uyg'onganida hamma narsa o'zgarganini darrov pay-qadi. Yomg'ir to'xtagan edi. Uyning harakatidan endi suv ustida chayqalmayotganligini tushundi. Eshikni ochib, u yirtilgan to'r orasidan butunlay boshqa dunyoni ko'rdi. Uy o'zining oldingi joyida, qoyaning ustida turar edi. Pastda suv hayqirar, ammo u endi oldingiday eman daraxti bilan uyning orasidagi yerni qoplamagan edi. Pantera ketgandi. Mushuk ostonadan eman daraxtiga qarab sakrab, yumshoq yerda tushunarsiz izlar qoldirgan edi. Bu izlar darhol o'chib keta boshladı. Ostonada esa kemirib tashlangan suyaklar yotar edi.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### SOVG'A

«Sovg'a» hikoyasining mazmunidan foydalanib, quyidagi berilgan savollarga javob bering.



*Mening  
fikrimcha,  
hikoyadagi  
ayol juda ham  
shafqatsiz.*



*Nega unday  
deysiz? Men uni  
hamdardlik bildira  
oladigan, rahmdil  
deb hisoblayman.*

Birinchi o'quvchi

Ikkinci o'quvchi

#### 1-savol

«Sovg'a» hikoyasini o'qigan ikki o'quvchi o'rtasidagi suhbatni o'qing:

Hikoyadan suhbat ishtirokchilarining nuqtayi nazarini isbotlashi mumkin bo'lgan dalillarni keltiring.

Suhbatning birinchi ishtirokchisi \_\_\_\_\_

Suhbatning ikkinchi ishtirokchisi \_\_\_\_\_

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Aks ettirish va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

#### SUHBATNING BIRINCHI ISHTIROKCHISI – «BAG'RITOSH VA SHAFQATSIZ»

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Javobda bu ayol yuraksiz va shafqatsiz ekanligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlash uchun hikoyadan dalillar keltiriladi. U panterani otishni xohlagan, hattoki uni o'qqa tutganligini esga olish mumkin.

Masalan:

- *U panterani otishga harakat qildi.*
- *U shafqatsiz, chunki uning istagi panterani o'ldirish edi.*

– Panterani qanday qilib o'ldirish haqida o'ylaganida u kulayotgan edi.

– U ovqat yeyayotganida mushukning g'ingshishidan kular edi.

– Va miltiqni ushlab, shoshib derazaga o'q otdi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarli bo'limgan noaniq javob berilgan bo'lsa.

Masalan:

– U panteraga yomon munosabatda bo'lgan.

**Yoki** materialni tushunmaganligi ko'rsatilgan, haqiqatdan uzoq bo'lgan, savolga aloqasi bo'limgan javob berilgan bo'lsa.

– U shafqatsiz, chunki u mushukni uyga kiritmaydi. (Hikoyada mushukning xavfli ekanligi aytilganligini hisobga olgan holda, u boshqacha yo'l tutishi mumkin ekanligi ehtimoli kam).

– Uning o'ylashicha, ayol shafqatliroq bo'lishi kerak edi. (Matn bilan bog'liq emas: javobda tushuntirilishicha, hikoyaning mazmunida aks ettirilgan narsa emas, balki yosh yigitning muloqotdagi gapi).

## SUHBATNING IKKINCHI ISHTIROKCHISI – «RAHM-SHAFAQAT VA YAXSHILIKKA QODIR»

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Javobda ayol rahm-shafqat va yaxshilikka qodir degan fikrni qo'llab-quvvatlash uchun hikoyada berilgan dalillarni keltiradi. U panterani ovqatlantirmoqchi bo'lganligi yoki unga ichi achiganligi haqida eslash mumkin.

Masalan:

– U qizg'anchiq emas, chunki u mushuk bilan ovqatini bo'lishdi.

– U mushukka go'sht berdi.

– U ilgakda ilinib turgan go'shtning qolganini oldi va derazaning siniq ko'zidan tashqariga otdi (sitata).

– Ayol birinchi marta panteraning ovozini eshitganda, uning tovushi vahimalidan ko'ra ko'proq g'amginroq deb o'yladi (Panteraga nisbatan ayolning rahm-shafqatini his qilishi mumkin bo'lgan dalil).

– U yerda shunday so'zlar bor: «o'ziga, odamlarga, toshqindan zasar yetgan barcha narsalarga rahmi keldi va yig'lagisi keldi...» (Shafqat qilishi mumkinligining isboti keltirilgan).

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarli bo'limgan noaniq javob berilgan bo'lsa.

– U hamdardlik bilan harakat qiladi.

– U mehribon.

**Yoki** materialni tushunmaganligi ko'rsatilgan, haqiqatdan uzoq bo'lgan, savolga aloqasi bo'limgan javob berilgan holatda javob qabul qilinmaydi.

– U ayol muhabbatini namoyon qilyapti deb o'ylaydi (Matn bilan bog'liq emas. Javobda tushuntirilishicha, hikoyaning mazmunida aks ettirilgan narsa emas, balki qizning muloqotdagi gapi).

## 2-savol

Hikoyaning boshida ayol qanday vaziyatda tasvirlangan edi?

A. Ubir necha kun ovqat yemadi va uyni tark etish uchun juda holsizlanib qolgan edi.

B. U o‘zini hayvondan himoya qiladi.

C. Uning uyi har tomondan suv bilan o‘ralgan.

D. Daryoning toshgan suvi uning uyini oqizib ketdi.

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

### Javob qabul qilinadi:

C. Uning uyi har tomondan suv bilan o‘ralgan.

**Javob qabil qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

## 3-savol

Hikoyaning boshida muallif panterani qanday ta’riflaganligi haqidagi ba’zi misollar:

«*U birovning qichqirig‘idan uyg‘onib ketdi, u juda g‘amgin edi...*» «*Bunga javoban yana qiyqirgan tovush eshitildi, ammo bu gal tovush pastroq, horg‘in-roq edi.*».

«... uning (panteraning) g‘amgin o‘kiriklarini uzoqlardan eshitgan edi».

Hikoyada sodir bo‘lgan barcha narsalarni hisobga olgan holda, muallif panterani tasvirlash uchun nima sababdan bunday tavsiflarni tanlaganini tushuntirib bering.



## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda tavsiflar achinish hissini uyg‘otadi deb belgilanadi. Javobda muallifning niyati yoki o‘quvchiga o‘tkaziladigan ta’siri haqida, shuningdek, hikoyaning qolgan qismi mazmunini eslatish nazardautiladi yoki yaqqol ifodalanadi. Javobda:

1. Keltirilgan tavsif panterani ayol bilan (yoki, umuman, odamlar bilan) birlashtiradi. Ikkalasi ham azob chekmoqda.

2. Keltirilgan tavsif o‘quvchini keyinchalik ayol panteraga nisbatan shafqatli bo‘lishiga tayyorlaydi.

3. Pantera shafqat uyg‘otuvchi obyekt sifatida tasvirlanadi.

Masalan:

– *Panteraning hayqiriqlari odamlarning qichqirig‘iga o‘xshaydi, bu bilan u ayolga o‘xshaydi va ikkisiga ham sizning rahmingiz keladi. (Pantera va odamlar o‘rtasidagi aloqa esga olinadi (1) O‘quvchiga o‘tkaziladigan ta’sir esga olinadi).*

– *Siz darhol pantera ham suv toshqinining qurbanini ekanligini tushunasiz. («ham» degan so‘z pantera va odamlar o‘rtasidagi aloqani nazarda tutadi. (1) O‘quvchiga o‘tkaziladagan ta’sir esga olinadi).*

– *Hali uning kimligini bilmay turib, ayolning panteraga rahmi kelayotganday tuyuladi. (Muallifning niyati yoki o‘quvchiga o‘tkaziladigan ta’siri haqida yaqqol esga olinmasa-da, (2) matnning keyinida keltirilgan parchalarni ayolning hamdardlik bildirayotgani bilan bog‘laydi).*

– *Sizning panteraga rahmingiz keladi. (Tasvirni o‘ziga xosliklari aniq tushunilmaganligi aks ettirilgan. (3) O‘quvchiga o‘tkaziladagan ta’sir yaqqol esga olinadi).*

– *Buning barchasi g‘amgin va qayg‘uli tuyiladi. (Muallifning niyati yaqqol ko‘rsatilmagan holda, (3) tasvirning o‘ziga xosliklari aniq tushunilmaganligi aks ettirilgan).*

**Javob qisman qabul qilinadi:** Javobda shafqatli bo‘lishdan tashqari, bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa maqsadlarga (yoki ta’sirlar)ga ko‘rsatmalar bor, ularga tasvirlashlardan olingan sitatlar orqali erishiladi. Keltirilgan izohlar matnni tushunish uchun mos keladi. Muallifning niyatiga yoki o‘quvchiga ta’sir qilishiga ko‘rsatma yaqqol ifodalangan yoki nazarda tutiladi.

Masalan:

– *Chunki bu narsa diqqat-e’tiborni jamlaydi, aslida, qiyqirgan tovush qayerdan kelib chiqayotgani noma’lum.*

– *O‘quvchi asta-sekin pantera haqida eslashga tayyorlanadi.*

– *Bu tasvir hech kimni loqayd qoldirmaydi.*

– *Xuddi ayol kabi siz ham bu tovush kimga tegishli ekanligini bilmaysiz.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarlicha bo‘lмаган yoki noaniq javob berilgan bo‘lsa.

Masalan:

– *Ular hikoyani qiziqarliroq qiladi.*

– *Bu tasvirlashning kuchli usuli.*

– *Pantera dushmanlarga xos bo‘lgan tovushlar chiqaradi. U xuddi ayolni ushlab olishga qodir edi (Asoslanmagan).*

- *Bu tasvirlar panterani o'quvchi qo'rqib ketadigan darajada tasvirlagan (Noaniq).*
- *Hikoya panteraning nomidan aytib beriladi (Noaniq).*

#### 4-savol

«Uy g'ichirlab, ingragan tovushlar chiqarib joyidan siljidi...».

Hikoyaning bu qismida uy bilan nima sodir bo'ldi?

- A. U qulab tushdi.
- B. U suzib ketdi.
- C. U eman daraxtiga borib urildi.
- D. U daryo tubiga cho'kib ketdi.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma'lumotni topish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

- B. U suzib ketdi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 5-savol

Matnning mazmuniga asoslanib, nima uchun ayol panterani ovqat-lantirganini tushuntirib bering.



#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin etish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Javobda o'quvchi matndan ayolning panteraga rahmi kelayotganini yoki unga nisbatan mehr-shafqatni his qilishi mumkinligini tushunib yetganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, ayol o'z xatti-harakatini anglamasdan amalga oshirganligini esga olish mumkin.

Masalan:

- *Uning jonivorga rahmi keldi.*
- *Chunki u ochlik nimaligini biladi.*
- *Chunki u rahmdil odam.*

**Javob qisman qabul qilinadi:** Javobdan o'quvchi hikoyada ayolning xatti-harakatlari asoslanmaganligini yoki u o'z harakatlarini anglay olmasligi tushuniladi.

Masalan:

- *Ubuni anglamagan holda qilgan.*
- *Kayfiyatiga qarab.*
- *Ichki sezgi bilan.*
- *Ubilmash edi.*
- *Hikoyada bu haqida hech narsa deyilmagan.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarlicha bo‘lmagan yoki noaniq javob berilgan bo‘lsa.

Masalan:

- *Agar mushukni to‘ydirsa, u ketib qoladi deb o‘ylagan.*
- *Chunki u jonivordan qo‘rqib ketdi.*
- *U jonivorni qo‘lga o‘rgatmoqchi bo‘ldi.*
- *Hayvon bilan do‘sht bo‘lish uchun.*
- *Chunki unga jonivor yoqqan edi.*

## 6-savol

Ayol «Men sen uchun keyin qayg‘uraman» deganda, u nimani nazarda tutgan?

- A. Mushuk unga tegmasligiga ishonishini.
- B. Mushukni qo‘rqtimoqchi bo‘lishini .
- C. Mushukni otib tashlamoqchi bo‘lishini.
- D. Mushukni ovqatlantirmoqchi bo‘lishini.

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin etish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:**

C. Mushukni otib tashlamoqchi bo‘lishini.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

## 7-savol

Siz qanday fikrdasiz, «Sovg‘a» matnidagi oxirgi gap uning yakuni uchun mos bo‘ldimi?

Bunda oxirgi gap butun hikoyaning mazmunini ochib berishga xizmat qilayotganini ko‘rsatib, o‘z javobingizni asoslang.



---

---

## BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Refleksiya va baholash

Matn formati: Yaxlit

Vaziyat: Shaxsiy

**Javob to'liq qabul qilinadi:** O'quvchining javobi matnni so'zmaso'z talqin qilish bilan chegaralanmaydi. Bunda talqin qilish matnni aniq tushunish bilan farqli bo'lmaydi. Oxirgi gapni hikoyadagi asosiy bog'liqliklar bilan, muammolar bilan va istiora (kinoya)lar bilan munosabati aniqlanadi. Masalan, javob pantera va ayol munosabati bilan, tirik qolish muammosi bilan, «sovg'a» yoki «minnatdorchilik» bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Oxirgi gapning mosligi haqidagi o'quvchining fikri yaqqol ifodalanadi yoki nazarda tutiladi.

Masalan:

- Ha. Taqdir ayolni hayotdagি muhim narsa bilan uchrashтиrdи, kemirib tashlangan oppoq suyaklar buning timsoli.
- Ha. Mening fikrimcha, panteraning go'shtdan qoldirgan suyagi ham sovg'a edi. Bu sovg'aning mazmuni esa: «Yasha va boshqalarning ham yashashiga yo'l ber».
- Ha. Suyak – bu sovg'a va bu hikoyaning mavzusi bo'lib xizmat qiladi.
- Ha. Go'shtdan qolgan suyaklar ayolga nimalar bo'lishi mumkinligini eslatadi.
- Yakuni juda mos, chunki jonivor unga go'sht uchun minnatdorchilik bildirgan bo'ldi.

**Javob qisman qabul qilinadi:** O'quvchining javobi matnni so'zmaso'z talqin qilish bilan chegaralanmaydi. Bunda talqin qilish matnni aniq tushunish bilan farqli bo'lmaydi. Javobda yakuniy qism uslub va kayfiyat terminlarida baholanadi, bunda oxirgi gap hikoyaning asosiy qismidagi umumiy uslub va kayfiyat bilan bog'lanadi. Oxirgi gapning mosligi haqidagi o'quvchining fikri yaqqol ifodalanadi yoki nazarda tutiladi.

Masalan:

- Ha, u hikoyani bayon qilish faktologik tavsifiga to'g'ri keladi.
- Ha, u nimaningdir noodatiy ekanligining ta'sirini kuchaytiradi.
- Yo'q, hikoyaning boshqa qismlari juda kengaytirilgan tarzda berilgani bilan bu qismi juda qisqa berilgan.

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarlicha bo'lмаган yoki noaniq javob berilgan bo'lsa.

Masalan:

- U samaraliroq. U haqiqatan ham kutilmagan.
- Yo'q, sovg'a yakun bilan bog'liq emas.
- Yo'q, yaxshisi voqeani qandaydir hayajonli narsa bilan yakunlash kerak edi. (Hikoyaning asosiy matni bilan yakuni bog'lanmagan).



## AMANDA VA GERSOGINIYA

Quyidagi betlarda ikkita matn berilgan. Birinchi matnda Jan Anuyaning «Leokadiya» pyesasidan parcha. Ikkinci matnda teatrga oid kasblarni tasvirlash keltirilgan. Savollarga javob berishda matnlardan foydalaning.

### **BIRINCHI MATN**

#### **AMANDA VA GERSOGINIYA**

Qisqacha mazmuni: Leokadia vafot etgan kundan boshlab, uni sevgan shahzoda chuqur qayg‘uda edi.

Gersoginiya, Shahzodaning xolasi, «Rezeda» do‘konida yosh sotuvchi qiz – Amandani ko‘rib qoldi. U ajablanarli darajada Leokadiyaga o‘xshar edi. Gersoginiya Shahzodani ta’qib qilib kelayotgan xotiralardan xalos etish uchun Amandanining yordam berishini xohlaydi.

*Qasr xiyobonidagi yo‘llar kesishmasi, kichik haykal atrofidagi yumaloq o‘rindiq... atrofni qorong‘ulik qoplamoqda...*

**AMANDA:**

– Men hali ham tushunmayapman. Xonim, men u uchun nima qilishim mumkin? Men siz o‘ylayotgan narsaga ishonmayman... Va nima uchun aynan – men? Men unchalik chiroyli emasman. Hattoki, boshqa birov juda go‘zal bo‘lganida ham, kim Shahzoda va uning xotiralari o‘rtasiga mana shunday birdan tusha oladi.

**GERSOGINIYA:**

– Sendan boshqa hech kim.

**AMANDA (hayratlanib):**

– Men?

**GERSOGINIYA:**

– Dunyo telba, bolaginam. U faqat ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘radi: imo-ishoralar, belgilar, rasmiy munosabatlar. Mana shuning uchun senga bu haqida hech qachon gapishtmagani. Ammo mening yuragim meni aldamaydi, men seni birinchi marta ko‘rganim zahoti

yig'lab yubordim. Leokadiyaning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki uni yaxshi bilganlar uchun sen uning egizagisan.

*Jimlik. Tun qushlari hozirgina kunduzgi qushlarning o'rnini egallashdi. Xiyobonni soyalar va qushlarning chug'ur-chug'uri egalladi.*

AMANDA (*juda yumshoq*):

– Xonim, men bu narsani qila olishimga ko'zim yetmayapti. Mening hech narsam yo'q, men o'zim hech kimman... ular esa sevishganlar, bundan tashqari, bularning barchasi faqat mening xayollarim, shunday emasmi?

*U ketmoqchi bo'lib, o'rnidan turdi va kichik chamadonini ko'tardi.*

GERSOGINIYA (*u ham yumshoq, ammo juda charchagan ohangda*):

– Albatta, azizam, kechirim so'rayman.

*(U ham xuddi qari ayollardek zo'rg'a o'rnidan turdi. Tun qo'ynida velosiped tovushining jaranglagani eshitildi, u cho'chib tushdi).*

– Eshit... bu o'sha! Sen unga u Leokadiani birinchi marotaba uchratgan joyda haykalga suyanib, shunchaki ko'rin. Seni hech bo'limganda bir marta ko'rishiga imkon ber, qichqirib yuborishga majbur qil, birdan qiziqish tug'dirishga imkon ber. Bu o'xshashlikni ko'rib ajablanishiga, bu hiylaga ishonishiga imkon ber. Bu hiyla haqida men unga ertagayoq aytib beraman, keyin u meni yomon ko'rib qoladi. Ammo hozir nimadir qilmasang, bu marhuma qiz uni mendan tortib oladi, men buni bilaman... (*u qizning qo'llarini ushlab oldi*). Sen, albatta, bu ishni qilasan, shundaymi? Men sendan o'tinib so'rayman, azizam (*U qizga yolvorib qaradi va tezda qo'shib qo'ydi*): Mana bu yerdan esa sen uni ko'rishing mumkin bo'ladi... Va... men senga: «Hayot – bu telbalik» degan so'zlarni aytib, uyatdan yonib ketyapman. Bu mening oltmish yillik hayotimdagи uchinchi marta va oxirgi 10 daqiqadagi ikkinchi marta uyatdan qizarib ketishim. Sen uni ko'rasan va... Agar u qachondir qurbi yetsa, nima uchun u emas, axir u chiroyli va ko'rkam, uning atrofida esa undan xunuk erkaklar ko'p, agar uning qachonlardir omadi chopganda edi, u va men sening xayolot dunyoingga tushib qolganimizda edi...

*Qorong'uda qo'ng'iroq tovushi yana eshitildi, ammo u endi juda yaqin edi.*

AMANDA (*pichirlab*):

– Men unga nima deyishim kerak?

GERSOGINIYA (*uning qo'llarini siqqan holda*):

– Oddiygina qilib: «Kechirasiz, ser, dengiz bo'yiga qanday o'tsam bo'ladi?» – deb so'ra.

*U daraxtlar soyasida yashirinishga shoshildi. Ayni vaqt. Noaniq sharpalar*

*ko‘rindi. Shahzoda o‘zining velosipedida haykalga yonboshlab turgan Amandaning sharpasiga juda yaqin joydan o‘tib ketyapti. Amanda sekingina dedi:*

**AMANDA:**

– Kechirasiz, ser...

**SHAHZODA:**

– Ha, xonim?

**AMANDA:**

– Aytolmaysizmi, dengizga qanday o‘tsam bo‘ladi?

**SHAHZODA:**

– Chapdan ikkinchi burilish, xonim...

*(U g‘amgin qiyofada hurmat bilan ta’zim qildi va velosipediga o‘tirib ketib boryapti. Uzoqdan velosiped qo‘ng‘irog‘i eshitildi. Gersoginiya yashirinib o‘tirgan joyidan qari ayollarga o‘xshab chiqib keldi).*

**AMANDA (sekin biroz fursatdan keyin):**

– U meni tanimadi...

**GERSOGINIYA:**

– Qorong‘u edi... Undan keyin kim biladi, uning xotiralarida u qanday qiyofada bo‘lgan? *(U hadiksirab so‘radi)*: Oxirgi poyezd allaqachon ketib qolgan. Siz bu tunni qasrda o‘tkazishni xohlar edingizmi?

**AMANDA (vazminlik bilan):**

– Ha, xonim.

*To‘liq qorong‘ulik. Qorong‘ida ikkalasi ham ko‘rinmaydi. Xiyobonda katta daraxtlarning orasida faqat shamolning uvullagan tovushi eshitilardi.*

**PARDA TUSHIRILADI.**

## **IKKINCHI MATN**

### **TEATRGA OID KASBLARNI ANIQLASH**

**Aktyor:** sahnada biron-bir personajning rolini o'ynaydi.

**Rejissor:** pyesalarni sahnalashtiradi, spektaklning barcha jihatlarini kuzatadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi. U sahnada aktyorlarni nafaqat joylashtiradi, balki ularning chiqishlarini va qayta kirib ketishlarini belgilaydi, ularning o'yinlarini to'g'rilaydi, shuningdek, asarlarga o'z talqinini beradi.

**Kostumchi:** eskizlar bo'yicha kostumlar tayyorlaydi.

**Rassom-dizayner:** kostumlar va dekoratsiya uchun eskizlarini yaratadi. Keyinchalik bu eskizlardan kerakli o'lchamdag'i kostumlar va dekoratsiyalar tayyorlaydilar.

**Rekvizitlar uchun mas'ul:** kerakli revvizitlarni qidiradi. «Rekvizit» so'zi siljitishtumkin bo'lgan hamma narsani anglatadi: kreslolar, xatlar, lampalar, gullar va boshqalar. Dekoratsiya va kostumlar revvizit bo'la olmaydi.

**Ovoz muhandisi:** taqdimot paytida barcha ovoz effektlari uchun mas'uldir. Spektakl davomida u doimo ovoz pulni orqasida turib ishlaydi.

**Yorituvchi:** yoritish uchun mas'uldir. U doimo spektakl davomida yoritish pulni ortida turadi. Yoritish juda-juda murakkab jarayondir, shuning uchun yaxshi uskunalangan teatrda o'ntagacha yorituvchilar ishlashi mumkin.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### AMANDA VA GERSOGINIYA

#### 1-savol

Pyesaning quyidagi qismi nima haqida?

*Gersoginiya shunday hiyla o'ylab topgandiki...*

- A. Uni shahzoda tez-tez yo'qlab turishiga majbur qilardi.
- B. Shahzodani va, nihoyat, uylanishga majbur qilardi.
- C. Amanda yordamida shahzodani o'z qayg'usini esidan chiqarishga majbur qilar edi.
- D. Amandani u bilan birga saroyda qolishga majbur qiladi.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

#### Javob to'liq qabul qilinadi:

- C. Amanda yordamida shahzodaning o'z qayg'usini esidan chiqarishga majbur qiladi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Parchada aktyorlar aytgan so'zlarga qo'shimcha tarzda aktyorlar rollarni qanday o'ynashi kerakligi va texnik xodimlar nima ishlar qilishlari kerakligi haqida ko'rsatmalar berilgan.

Bu ko'rsatmalar matnda qanday ajratib ko'rsatilgan?



---

---

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Refleksiya va baholash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Javobda o'quvchi kursiv yoki qavslar ishlatilganligini o'z so'zlari bilan tasvirlashi mumkin.

- *Ular qavslarda kursiv bilan berilgan.*
- *Yotiqli harflar bilan.*

- *Quyidagicha ajratib ko'rsatilgan: (Kursiv bilan yozilgan).*
- *Kursiv bilan yozilgan va qavs ichida ko'rsatilgan.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Yetarlicha bo'limgan yoki noaniq javob berilgan bo'lsa.

- *Yozuv boshqacha uslubda yozilgan.*
- *Boshqa shriftda.*
- *Yo'g'on shrift bilan (Noaniq).*
- *Mayda shrift bilan (Noaniq).*

### 3-savol

Quyidagi jadvalda pyesadan berilgan parchani qo'yishda ishtirok etadigan texnik xodimlar ko'rsatilgan. Birinchi matndan sahna bo'yicha berilgan ko'rsatmalarining birini jadvalga yozing. Bunda har bir mutaxassis ko'rsatmani amalga oshirishi kerakligini hisobga oling.

Birinchi namunada buni qanday yozish kerakligi ko'rsatilgan

Teatr mutaxassislari	Sahna bo'yicha ko'rsatmalar
Rassom-dizayner	Kichik haykal atrofidagi aylana o'rindiq
Rekvizit uchun mas'ul	
Ovoz rejissori	
Yorituvchi	

### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

### 3 A (REKVIZIT UCHUN MAS'UL)

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Jadvalda kichik chamadoncha yoki velosiped ko'rsatilgan, matndan sitatalar keltirilgan bo'lishi mumkin (texnik xodimlarga ko'rsatma).

- *O'zining kichkina chamadonchasi.*
- *Velosiped.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

- *Velosiped qo'ng'irog'i.*
- *Haykal.*

### **3 B (OVOZ REJISSORI)**

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Qushlarning sayrashi, yoki (tungi) qushlar yoki ularning chug'urlashi, yoki velosipedning tovushi, yoki shamol, yoki jimlik jadvalda ko'rsatiladi. Matndan sitatalar keltirilgan bo'lishi mumkin.

- *Oqshom havosida velosiped tovushi eshitilmoqda.*
- *Faqat shamol uvullaydi.*
- *Tungi qushlar.*
- *Tungi qushlar endigina kunduzgi qushlarning o'rnini egallashdi.*

### **3 C (YORITUVCHI)**

**Javob to'liq qabul qilinadi:**


- *Xiyobon sharpalarga to'la.*
- *Daraxtlarning qalin soyasi.*
- *Oqshom cho'kyapti.*
- *Oqshom havosida.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

### **4-savol**

Rejissor aktyorlarni sahnada joylashtiryapti. Diagrammada Amandaning joyi «A» harfi bilan, Gersoginiyaning joyi «G» harfi bilan belgilangan.

Amanda va Gersoginiya Shahzoda kelgan vaqtida taxminan qayerda turganligini «A» va «G» harflari bilan quyida keltirilgan sxemaga qo'ying.




### **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Ma'lumotni topish.


*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** A harfi haykalni oldida, G harfi esa daraxtlarning oldida joylashgan.



**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



### 5-savol.

Pyesaning oxirrog‘ida Amanda: «U meni tanimadi...» – dedi.  
Bu nimani bildiradi?

- A. Shahzoda Amandaga qaramaganini.
- B. Amanda do‘konda sotuvchi ekanligini Shahzoda tushunmadı.
- C. Uni avval ham uchratganini Shahzoda tushunmadı.
- D. Amanda Leokadiyaga o‘xshashligini Shahzoda payqamadi.

### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

### **Javob to‘liq qabul qilinadi:**

*D. Amanda Leokadiyaga o‘xshashligini Shahzoda payqamadi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



## KADRLAR

***KANKO sanoat kompaniyasi  
kadrlar bo'limi***

### ***Kadrlarning ichki va tashqi harakatlanish markazi (KITHM)***

#### ***KITHM nima?***

KITHM – bu kompaniyaning kadrlar bo'limi tashabbusi bilan tashkil etilgan kadrlarning ichki va tashqi harakatlanish markazi. Bu bo'limning bir qism xodimlari boshqa bo'lim vakillari va boshqa tashkilotlardan taklif etilgan kadrlar bo'yicha maslahatchilari bilan ishlashadi.

KITHM kompaniya xodimlariga KANKO ichida va uning tashqarisida ish izlashga yordam beradi.

#### ***KITHM nimalar qiladi?***

KITHM ishini o'zgartirishga qaror qilgan kompaniya xodimlariga quyidagilar orqali yordam beradi:

##### ***- Ishchi kuchi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar banki***

Xodimlar bilan suhbatdan so'ng u haqidagi barcha ma'lumotlar bazaga joylashtiriladi. Bu bazada KANKO yoki boshqa kompaniyalardan ish topmoqchi bo'lganlar haqidagi ma'lumotlar joy olgan.

##### ***- Imkoniyatlarni baholash***

Xodimning imkoniyatlari u bilan kasb bo'yicha o'tkazilgan suhbatda aniqlanadi.

##### ***- Kurslar***

Axborot bo'limi va kadrlarni tayyorlash bo'yicha tashkil etilgan kurslar qanday qilib ish izlash va o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirishni o'rgatadi.

##### ***- Kadrlarni qayta tayyorlash bo'yicha dasturlar***

KITHM yangi kasblarni o'zlashtirmoqchi bo'layotgan xodimlarga ko'mak beruvchi loyihalarni quvvatlaydi.

##### ***- Vositachilik xizmatlarini ko'rsatadi***

KITHM kompaniyadagi ish o'rnlari qisqarishi munosabati bilan ishsiz qolayotgan xodimlarga ularning yangi ish o'rnlari topishlari uchun vositachi vazifasini bajaradi.

##### ***- KITHMning xizmatlari qancha turadi?***

Xizmatlarning narxi siz ishlaydigan bo'lim bilan kelishilgan holda aniqlanadi. Markazning ayrim xizmatlari tekin. Ammo sizga berilayotgan

xizmatlar uchun to‘lov o‘tkazish yoki markaz uchun aniq bir xizmat ko‘rsatishni taklif qilishlari mumkin.

### ***KITHM qanday ishlaydi?***

KITHM mana shu kompaniyada yoki undan tashqarida yangi ish topish haqida jiddiy o‘ylanayotgan odamlarga yordam beradi.

Xodimlar bilan ishlash ulardan arizani olishdan boshlanadi. Kadrlar bilan ishlovchi maslahatchi bilan suhbat markazga murojaat qilgan odam uchun foydali bo‘lishi mumkin. Shubhasiz, birinchi o‘rinda siz maslahatchi bilan o‘zingizning rejalaringiz va xodim sifatida o‘sish uchun muayyan imkoniyatlaringiz haqida gaplashishingiz kerak. Maslahatchi sizning imkoniyatlaringiz va sizning bo‘limlaringizdagi o‘zgarishlar haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Nima bo‘lganda ham KITHM bilan xodimlar bo‘yicha maslahatchi orqali bog‘lanish mumkin. U arizangizni qayta ishlab chiqadi, va shundan so‘ng sizni markaz vakili bilan uchrashtiradi.

### ***Qo‘srimcha ma’lumot***

Kadrlar bo‘limi sizga KITHM haqida yana qo‘srimcha ma’lumotlar berishi mumkin.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### KADRLAR

Kadrlar bo‘limining e’lonidan foydalanib, savollarga javob bering.

#### 1-savol

E’longa ko‘ra KITHM haqida qayerdan qo’shimcha ma’lumot olishingiz mumkin?

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Axborotni topa olish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda eng kamida quyidagilardan biri eslatib o’tiladi:

- Kadrlar bo‘limidan
- Kadrlar bo‘yicha maslahatchi huzuridan
- Kadrlar bo‘yicha maslahatchi sizga qo’shimcha ma’lumot berishi mumkin.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

#### 2-savol

Kompaniyani qayta tashkillashtirish tufayli ishsiz qolgan xodimlarga KITMH beradigan **ikkita** xizmat turini sanab o’ting.



#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Ma’lumotni topa olish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ishxonada.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda ikkala element haqida ham eslatib o’tiladi.

1. O’rtada vositachi bo‘lib xizmat qiladi.
2. Yangi ish topishda yordam beradi (Quyidagi javoblar qabul qilinmaydi: «Mavjud ishchi o‘rinlar haqida ma’lumotlar banki», «Imkoniyatlarni baholash», «Kurslar» yoki «Kadrlarni qayta tayyorlash bo‘yicha dasturlar»).

– Agar zarur bo‘lsa, vositachi sifatida ishtirok etadi va yangi ish topish uchun xizmat qiladi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

– Vositachi.

– Kadrlarni qayta tayyorlash bo‘yicha dasturlar.

– Kurslar.

– Ish izlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish.

– Vositachi.

– Kadrlar bo‘yicha maslahatchi bilan suhbat va arizalarni qabul qilish.



## YANGI ME'YORLAR

### Yangi texnologiyalar yangi me'yorlarni yaratish zarurligini keltirib chiqaradi.

Ilm-fan qonunchilikning va axloqning rivojlanishidan oldin yuradi. 1945-yilda bu narsa atom bombasi yordamida hayotni yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan mash'um voqealarga olib keldi, endilikda esa bu bepushtlikni yengishga imkon beradigan texnologiyalar yordamida hayotni yaratish bilan bog'liq bo'lib kelmoqda.

Ko'pchiligidan angliyalik Braunlar oilasi bilan birga xursand bo'ldik, chunki sinov naychasidan birinchi bola Luiza dunyoga keldi. Biz bunga o'xshagan boshqa tengi yo'q holatlarda bolalar tug'ilishidan, masalan, vaqt kelganda ona organizmiga ko'chirib o'tkazish uchun muzlatilgan embrionlardan sog'lom bolalarning dunyoga kelganidan ham xursand bo'ldik.

Avstraliyada ikkita muzlatilgan embrion juda ko'p axloqiy va yuridik savollarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu embrionlarni Mario Riosning xotini Elza Riosga ko'chirish mo'ljallangan edi. Avvalgi ko'chirib o'tkazish omadsiz yakunlandi va Rioslar yana bir bor urinib ko'rishga qaror qilishdi. Biroq ikkinchi urinishdan oldin Rioslar samolyot halokati natijasida vafot etishdi.

Avstraliya gospitalida muzlatilgan embrionlarni nima qilish kerak edi? Ularni boshqa birovga o'tkazish mumkinmi? Xohlovchilar ko'p edi. Ammo bu embrionlar Rioslarning boy merosiga egalik qila oladimi? Yoki ularni yo'q qilib tashlash kerakmi? Shubhasiz, Rioslar bu haqda hech qanday ko'rsatma qoldirishmagan.

Avstraliyada bu muammoni o'rganish uchun komissiya tuzildi. Oldingi haftada komissiya o'z hisobotini e'lon qildi. Komissiya a'zolari embrionlarni eritish kerakligi haqida qaror qabul qilishdi. Chunki embrionlarni kimgadir ko'chirib o'tkazish uchun uning egalarining roziligi kerak edi, ammo bunday rozilik berilmagan. Komissiya, shuningdek, embrionlar hozirgi holatida tirik emasligi va ularda tiriklarga xos huquqlar yo'qligi, bu esa, o'z navbatida, ularni yo'q qilinishi mumkin ekanligini qayd etdi.

Komissiya a'zolari noaniq yuridik va axloqiy me'yorlarga asoslangan holda qaror qabul qilganlarini tushunishardi. Shuning uchun ular uch oy

mobaynida qabul qilingan qaror bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganishni talab qilishdi. Agar ko'pchilik embrionlarni yo'q qilishga qarshi bo'lsa, komissiya o'z qarorini qayta ko'rib chiqadi.

Hozirda Sidneydagi Qirolicha Viktoriya gospitalida sun'iy urug'lantirish uchun navbatda turgan oilalar agar o'zлari bilan biror hol yuz bersa, embrionlarni nima qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar berishlari kerak.

Bu Rioslar bilan bo'lgan holatga o'xshash vaziyat yana sodir bo'lmasligiga kafolat beradi? Boshqa murakkab vaziyatlarda nima qilish kerak? Yaqinda Fransiyada bir ayol vafot etgan erining muzlatilgan spermasidan foydalaniб, bola tug'ishga ruxsat olish uchun sudga murojaat etishga majbur bo'ldi.

Uning iltimosiga qanday munosabatda bo'lish kerak? Birovning bolasini qornida olib yurib, tug'ib berishga va'da bergen ayol kelishuvni buzib, so'nggi vaqtda bolani bermay qolishi haqida nima deyish mumkin?

Jamiyatimiz atom energiyasining halokatli kuchini cheklaydigan qonunlarni amalga oshira olmadi. Biz ushbu fojianing mevalarini yig'ib olyapmiz. Biroq avlodlarni ko'paytirishni tezlashtirish yoki sekinlashtirish sohasida olimlar turli xil suiste'mollik qilishlari ehtimoli mavjud. Axloqiy va yuridik chegaralar biz juda chuqurlashib ketmasimizdan avval o'rnatilishi shart.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### YANGI ME'YORLAR

*Gazetadagi «Yangi texnologiyalar yangi me'yorlarni yaratish zarurligini keltirib chiqaradi» nomli maqoladan foydalanib, savollarga javob bering.*

#### 1-savol

Avstraliyaliklar samolyot halokatida vafot etgan oilaga tegishli muzlatilgan embrionlar masalasini hal qilish uchun amalga oshirgan ishlar haqida aytilgan gapning tagiga chizing.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Quyidagi elementlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa, gap yoki gapning bir qismi tagiga chiziladi.

1. «Komissiya tashkil etildi».

2. «Uch oy mobaynida komissiya tomonidan qabul qilingan tavsiyalar bo'yicha jamoatchilik fikri o'r ganilishi kerak...».

(Tagiga chizilgan)... Avstraliyada bu muammoni o'r ganish uchun komissiya tuzildi (O'quvchi tegishli gaplardan birining tagiga chizdi).

(Tagiga chizilgan)... Avstraliyada bu muammoni o'r ganish uchun komissiya tuzildi. Va ular uch oy ichida komissiya tomonidan qabul qilingan tavsiyalar bo'yicha jamoatchilik fikrini o'r ganishni talab qildilar (O'quvchi ikkisi ham tegishli bo'lgan gapni tagiga chizdi).

(Tagiga chizilgan)... Avstraliyada bu muammoni o'r ganish uchun komissiya tuzildi... Va Fransiyada bir ayol vafot etgan erining muzlatilgan spermasidan foydalanib, bola tug'ishga ruxsat olish uchun sudga murojaat etishga majbur bo'ldi. (Matnning bir qismi to'g'ri chizilgan, yana bir chizilgan jumla keyingi savolga javob berish bilan bog'liq, shuning uchun javobni to'g'ri deb hisoblash mumkin).

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

- (Tagiga chizilgan)... Embrionlar eritilishi kerak, chunki embrionlar uning egalarining rozilagini talab qiladi va bunday rozilik berilmagan (O'quvchi matnning mavzusiga aloqador bo'lмаган qismini tagiga chizgan).

– (Tagiga chizilgan)... Avstraliyada bu muammoni o‘rganish uchun komissiya tuzildi.

## 2-savol

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, muzlatilgan embrionlarni transplantatsiya qilish, yangi qonunlarni yaratish zaruriyatiga olib keladi degan fikrlardan **2 tasini** matndan keltirib yozing.



1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni talqin qilish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to‘liq qabul qilinadi:** Javobda quyidagi misollardan kamida ikkitasini eslatib o‘tadi:

1. Rioslar vafot etganidan so‘ng embrionlar bilan nima qilish kerakligi haqida muammolar paydo bo‘ldi (4-xatboshidan olingan muammolarning ro‘yxatini shunchaki sanab o‘tish to‘g‘ri javob sifatida qabul qilinmaydi, (masalan, «Muzlatilgan embrionlarni gospitalda nima qilish kerak edi?», «Embrionlar kapitalni meros qilib olish huquqiga egami?») Rioslarning o‘limi bilan yaqqol aloqasi yo‘q).

2. Fransiyada bir ayol vafot etgan erining muzlatilgan spermasidan foydalanib, bola tug‘ishga ruxsat olish uchun sudga murojaat etishga majbur bo‘ldi.

3. Ayol birovning bolasini ko‘tarib, bolani berishdan bosh tortsa, u bilan qanday munosabatda bo‘lish kerak?

– Misollarda embrion egalari agar embrionlar bilan qandaydir hodisa yuz bersa, embrionlarni nima qilish kerakligi yoki birovning bolasini ko‘tarib, bolani berishdan bosh tortgan surrogat ona bilan nima qilish lozimligi haqida qonunlar kerakligi ko‘rsatiladi.

**Javob qisman qabul qilinadi:** Yuqorida sanab o‘tilgan biotexnologiyalar bilan bog‘liq misollardan biri ko‘rsatiladi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



## SIZ TISHLARINGIZNI QANDAY TOZALAYSIZ?


Tishlaringizni uzoqroq va ehtiyyotkorlik bilan tozalasangiz, ular toza bo'lib qoladimi?

Britaniyalik olimlarning aytishlaricha, yo'q. Amaliyotda tishni turli xil usullar bilan tozalab ko'rishib, shunday xulosaga kelishdiki, oddiy tish cho'tkasi bilan ortiqcha harakatlarsiz ikki daqiqalik tishni tozalash usuli eng samarali hisoblanar ekan. Agar tish cho'tkasini qattiq harakatlar bilan ishlatsangiz, emal va milklaringizga zarar yetkazasiz va tishlarni ovqat qoldiqlaridan xalos eta olmaysiz.

Tish tozalash bo'yicha mutaxassis Benta Xansenning fikriga ko'ra, tish cho'tkasini siz qalamni ushlaganingiz kabi ushlasangiz yaxshiroq ekan.

«Tozalashni tishni bir burchagidan boshlab tish cho'tkasi bilan tish qatorlari orasida yurgizib chiqing», deya maslahat beradi Xansen xonim.

Tilingizni tozalashni ham unutmang! Til qobig'ida noxush hidlarni keltirib chiqaradigan ko'plab bakteriyalar saqlanib qoladi».



«Siz tishlaringizni qanday tozalaysiz?» maqolasi Norvegiya jurnalida chop etilgan.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### SIZ TISHINGIZNI QANDAY TOZALAYSIZ?

Quyidagi savollarga javob berish uchun maqola matnidan foydalaning.

#### 1-savol

**Ushbu maqola nima haqida?**

- A. Tishni qanday usulda tozalash samaraliroq?
- B. Qanday tish cho'tkasidan foydalanish yaxshiroq?
- C. Yaxshi tishlarga ega bo'lish qanchalik muhim?
- D. Turli xil odamlar tishlarini qanday tozalashadi?

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Umumlashtirish va talqin qilish, chuqur tushunish, qisqa tavsifli matnning asosiy g'oyasini aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

A. Tishni qanday usulda tozalash samaraliroq.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



#### 2-savol

Britaniyalik tadqiqtchilar nimani tavsiya etishadi?

- A. Tishlarni tez-tez tozalashni.
- B. Tilni tozalashga urinmaslikni.
- C. Ortiqcha kuch ishlatib tishlarni tozalamaslikni.
- D. Tishdan ham ko'ra tez-tez tilni tozalashni.

## **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Ma'lumotni izlash va topish, axborot topish. Qisqa tavsifli matndan sinonim va o'xshashliklarni topish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

*C. Ortiqcha kuch ishlatib tishlarni tozalamaslikni.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



### **3-savol**

Benta Xansenning maslahatiga ko'ra nima uchun tilni ham tozalash kerak?



---

---

## **BAHOLASH MEZONI**

*Faoliyat:* Ma'lumotni izlash va topish. Qisqa tavsifli matndan ma'lumot topish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Og'iz bo'shlig'idan keladigan noxush hiddan qutulish yoki bakteriyalar haqida gapiriladi. Matnda keltirilgan sitatalardan aynan keltirish mumkin.

- Bakteriyalardan qutulish uchun.
- Tilda bakteriyalar mavjud bo'lishi mumkin.
- Bakteriyalar.
- Noxush hid.

– Bakteriyalarni bartaraf etish va shu yo'l bilan og'iz bo'shlig'idan keladigan noxush hiddan qutulish (ikkala sabab).

– Noxush hid keltirib chiqaradigan bakteriyalar mavjud bo'lishi mumkin.

– Bakteriyalar tufayli og'iz bo'shlig'idan noxush hid taraladi.

**Javob qabul qilinmaydi:** Javob noaniq va noto'g'ri bo'lsa.

– Tishlarni qalamni ushlagandek qilib tozalash kerak.

– Tish cho'tkasiga unchalik suyanmaslik kerak.

– Esdan chiqarib qo'ymaslik uchun.

– Ovqat qoldiqlarini olish uchun.

– Tishdagi toshlarni bartaraf etish uchun.

#### 4-savol.

Nima uchun matnda qalam yodga olinadi?



A. Tish cho'tkasini qanday qilib ushlash tushunarli bo'lishi uchun.

B. Cho'tka va qalam o'xhash.

C. Tishlaringizni turli xil usullar yordamida tozalashni ko'rsatish uchun.

D. Tishlarni tozalash xuddi xat yozish kabi e'tiborliroq bo'lishni talab etadi.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnni shaklini tasvirlash va baholash. Qisqa tavsifli matnda analogiyadan foydalanish maqsadini aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Shaxsiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

A. Tish cho'tkasini qanday qilib ushlash tushunarli bo'lishi uchun.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



## QON TOPSHIRISH

Donorlik – hayotni asrab qoladi!

Inson qonining butunlay o‘rnini bosuvchi hech qanday modda mavjud emas. Shuning uchun inson umrini saqlab qolishda donorlik xizmati muhim ahamiyatga ega.

Fransiyada har yili 500 000 nafar bemorga qon quyish orqali o‘z xastaliklarini yengillashtirishiga amaliy yordam ko‘rsatiladi.

Qon olish uchun bir martalik sterillangan asboblardan (shpris, naychalar, konteyner) foydalilanildi.

Qon topshirayotib, siz hech qanday tahlikaga duchor bo‘lmaysiz.

Qon topshirish begonalarga beg‘araz yordam berishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, u atigi 45 daqiqadan 1 soatgacha vaqt ni oladi.

Donordan 450 ml qon va tahlil qilish hamda yana tekshirish uchun bir necha tomchi qon olinadi.

Erkak kishi yiliga 5 marta qon topshirishi mumkin.



Ayol kishini esa yiliga 3 marta qon topshirishi maqsadga muvofiq sanaladi.

18 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan insonlar donor bo‘lishlari mumkin. Har bir qon topshirilgandan so‘ng, albatta, 8 hafta tanaffus bo‘lishi kerak.

«Qon topshirish» haqidagi e’lon internetdan – fransuz saytidan olingan.



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### QON TOPSHIRISH

Quyidagi savollarga javob berish uchun maqola matnidan foydalaning.

#### 1-savol

«Qon topshirish» matnining asosiy maqsadi nima?

- A. Odamlarni qon topshirishga undash.
- B. Qon topshirish bilan bog'liq xavfni tasvirlash.
- C. Qayerda qon topshirish mumkinligini tushuntirish.
- D. Ko'plab odamlar muntazam ravishda qon topshirishlarini isbotlash.

#### BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Umumlashtirish va talqin qilish. Matnda berilgan e'ltonni asosiy vazifasini aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

A. Odamlarni qon topshirishga undash.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.



#### 2-savol

Nima uchun e'londa donorlikni muhim ahamiyat kasb etishi haqida gapirilgan? Matnda ushbu jumlanı yoritib bergan gapni yozing.



---

---

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Matnda aniq ifodalangan ma'lumotlarni topish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** «*Hech qanday modda yo'q» degan so'zlar bilan boshlangan jumla to'liq yoki qisman keltiriladi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** To'liq bo'lмаган yoki noaniq javob berilgan bo'lsa.

### 3-savol

18 yoshli o'smir qiz oxirgi 12 hafta ichida ikki marta qon topshirgan, u yana qon topshirishni xohlaydi. E'londan kelib chiqib, unga qanday holatda qon topshirish tavsiya etiladi?



---

---

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Umumlashtirish va talqin qilish. Xulosa qilish uchun qisqa matnning alohida qismlarini bog'lash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** *Oxirgi qon topshirilgandan keyin yetarli vaqt o'tganligi aniqlanadi.*

- *Bu oxirgi marta qon topshirilgandan keyin 8 hafta o'tganiga bog'liq.*
- *Yetarli vaqt o'tgan bo'lsa, u (qon berishi) mumkin. Aks holda, bu mumkin emas.*

**Javob qabul qilinmaydi:** To'liq bo'lмаган yoki noaniq javob berilgan.

- *Vaqt.*
- *Matn ma'lumotlarini aniq tushunmaydi yoki javob noaniq.*
- *Agar u yetarlicha katta bo'lsa, unda mumkin.*
- *Mumkin, agar bu yili ortiqcha qon topshirmagan bo'lsa.*

### 4-savol

Matnda «Qon olish uchun bir martalik sterillangan asboblardan foy-dalaniladi», deyilgan.

Nima uchun ushbu ma'lumot e'longa kiritilgan?

- A. Donorlik xavfsiz ekanligiga sizni ishontirish uchun.
- B. Donorlik muhim rol o'ynashini ta'kidlash uchun.
- C. Topshirilgan qon qanday ishlatalishini tushuntirish uchun.
- D. Tahlil va tekshiruvlarning tafsilotlarini berish uchun.



## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Fikrlash va baholash. E'londa berilgan jumlalarni ishonchli yo'naltirilganligini aniqlash.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:**

A. Donorlik xavfsiz ekanligiga sizni ishontirish uchun.

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

## 5-savol

E'londan kelib chiqib, jadvalda keltirilgan insonlarga qon topshirish mumkinmi?

Agar mumkin bo'lsa, «HA», mumkin bo'lmasa, «YO'Q» javobini belgilang.

Shaxsiy ma'lumotlar	Qon topshirishga ruxsat beriladimi?
Avallari hech qachon qon topshirmagan 15 yoshli o'smir	Ha / Yo'q
Olti hafta oldin qon topshirgan 30 yoshli erkak	Ha / Yo'q
1 yil oldin qon topshirgan 20 yoshli ayol	Ha / Yo'q

## BAHOLASH MEZONI

*Faoliyat:* Talqin qilish. Boshqa vaziyatlarga nisbatan e'londa ko'rsatilgan mezonlardan foydalanish.

*Matn formati:* Yaxlit.

*Vaziyat:* Ijtimoiy.

**Javob to'liq qabul qilinadi:** Uchta to'g'ri javob belgilangan tartibda keltirilganda. (Yo'q, Yo'q, Ha)

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

## **Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar hamda elektron resurslar:**

1. PISA 2018 Reading framework – [www.oecd.org](http://www.oecd.org).
2. OECD (2013), PISA–2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, OECD Publishing.
3. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018.
4. Ковалева Г.С., Э.А.Красновский Примеры открытых заданий по чтению PISA–2000, Центр оценки качества образования ИСРО РАО, 2003
5. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog‘ayeva, «O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi», Qo‘llanma, 2019-yil.
6. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (Organization for Economic Co-operation and Development, OECD) –  
[www.oecd.org/edu/pisa](http://www.oecd.org/edu/pisa).
7. Центр оценки качества образования ИСРО РАО –  
<http://centeroko.ru>
8. Международный координационный центр исследования TIMSS –  
<http://timss2015.org/>.
9. Global Innovation Index 2018 Report.  
<https://www.globalinnovationindex.org>.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz).
11. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI  
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

**XALQARO TADQIQOTLARDA  
O'QUVCHILARNING O'QISH  
SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

*(Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va  
soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma)*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahriri  
Toshkent – 2019

Muharrir *Sanjar Turimov*  
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*  
Texnik muharrir *Diyora O'tkurbekova*  
Musahhih *Sharofat Xurramova*

*Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi bilan Jahon banki hamkorligidagi GPE TF018066 «Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limi takomillashtirish» loyihasi mablag'lari hisobidan chop etildi.*

***Mazkur qo'llanmani sotish va undan tijorat maqsadida foydalanish taqiqlanadi.***

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011**

Bosishga ruxsat etildi 23.12.2019.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ . «PT Serif» garniturasi. Offset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 8,27. Nashriyot-hisob tabog'i. 7,5.  
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №771.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41**



ISBN 978-9943-5991-3-0

A standard one-dimensional barcode is located in the bottom right corner, below the ISBN number. It encodes the same ISBN information as the printed text above it.

9 789943 599130